

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI, PEDAGOGIKA FAKULTETI
5141000-MUSIQIY TA'LIM YO'NALISHI

SAFARROOV FARRUX

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: « *SAMARQANDLIK BASTAKORLAR IJODI:
MUSIQIY TAHLIL* ».



Ilmiy rahbar:

Qo'shayev I.A

Buxoro- 2016 yil.

**Mavzu: « SAMARQANDLIK BASTAKORLAR IJODI:
MUSIQIY TAHLIL».**

1. Bob: O'zbek milliy musiqa madaniyatida Samarqand bastakorlari yaratgan qo'shiqlarni kuylash bilan bog'liq taxliliy, tavsifiy va usuliy tavsiyalar .

1.1. Musiqiy asarlar va adabiyotlar tahlili.

1.2. Samarqand bastakorlari yaratgan asarlarni tavsiflash.

1.3. Milliy musiqamizda Samarqand qo'shiqchilari, dostonchilari va ularning salmoqlardorlik omillari.

2. Bob: Milliy musiqamizda Samarqand bastakorlik uslubining shakllanishi.

2.1. Samarqandda Kompozitorlik va havaskorlik san'atining rivojlanishi.

2.2. Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodi, yaratgan qo'shiqlarni kuylash jarayonni bilan bog'liq usubiy tavsiyalar

2.3 Samarqandlik bastakor Sharifjon Akramovning ijodiga mansub ayrim qo'shiqlar tahlili.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin, barcha sohalarida bo'lganidek, musiqa ta'limida ham bir qancha ijobiy o'zgarishlar bo'ldi. Zero mamlakatimizda dastlabki demokratik yo'nalishdagi tub islohotlar ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, shu jumladan, ma'naviy hayotimizda ham yaqqol ko'zga tasvirlanmoqda. 2012 yil 17 fevral kuni Toshkentdagi simpoziumlar saroyida yurtboshimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash –mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizasiya qilishning eng muhim sharti" mavzudagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi Prezidentimiz Islom Karimovning nutqida va dunyoning 48 davlatidan tashrif buyurgan ta'lim tizimi rahbarlari, olimlar hamda mutaxassislarning chiqishlarida uzluksiz ta'lim va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashning milliy modelini yaratishda O'zbekistonning ijtimoiy va gumanitar rivojlanish borasida yutuqlari tahsinga sazavor ekanligi ta'kidlandi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq – deb yozadi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimo, -Ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash Davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi".

Musiqiy merosimizni o'rganish bilan bir qatorda, xalq musiqasiga asoslangan kompozitorlik va bastakorlik ijodiyoti namunalarini umumiy va maxsus musiqa ta'lim jarayoniga kiritishi zamonaviy talab va ehtiyojlardan biri bo'lib qoldi.

O'quvchi yoshlar xalq musiqasining turli janrlarda, xususan qo'shiq janri bilan tanishtirish, ularni zamonaviy kompozitorlar yaratgan qo'shiqlar bilan taqqoslash va o'rgatish musiqa muallimining muhim vazifasidir. Qoshiqlarni o'rgatish uchun avvalo o'quv materiali sifatida tanlangan barcha qo'shiqlarni o'quvchi biror cholg'u jo'rligida ijro eta olishi, qo'shiqni tahlil qilishi, unga tavsif berishi va usuliy (metodik) yondashishi kerak.

O'zbek kompozitorlari sifatida bolalar uchun musiqa yaratgan kompozitorlari talaygina. Ammo Fattoh Nazarov, G'afur Qodirov, Abdurahim Muhamedov, Mardon Nasimov, Manas Leviyev kabi bolalar uchun ko'proq, qo'shiqlar yaratib ketgan marxum kompozitorlarning ishlarini davom ettirayotgan shogirdlar- Dilorom Omonullayeva, Hadim Narxo'jayev, Sonya Abramova, Habibulla Rahimov va boshqa bolalar kompozitorlari deyak mubolag'a bo'lmaydigan kompozitor va bastakorlar bopki, ularning ijodiga mansub bo'lgan bolalarga mo'ljallangan qo'shiq va cholg'u kuylarni tanlash, tasniflash, tahlil qilish hamda bolalarga o'rgatish jarayoniga asarlar mualliflari haqida ma'lumotlar berish mutaxassis musiqa muallimining birinchi darajali ilmiy, ijodiy faoliyati hisoblanadi.

Shu bois biz butiruv malakaviy ishimizning mavzusi sifatida Samarqandlik bastakorlar ijodi va ular yaratgan qo'shiqlarni musiqiy tahliliga murojaat qildik.

Ishning birinchi bobida o'zbek milliy musiqa madaniyatida Samarqand bastakorlari yaratgan qo'shiqlarni kuylash bilan bog'liq taxliliy, tavsifiy va

usuliy tavsiyalar , ikkinchi bobida esa, milliy musiqamizda Samarqand bastakorlik uslubining shakllanishi borasida fikr yuritiladi.

Ilshni xotimasida olib borilgan tadqiqiy ishlarning xulosasi, musiqa o'qituvchilari faoliyatidagi ahamiyati va amalda qo'llash uchun nazariy hamda amaliy tavsiyalar berilgan.

1. Bob: O'zbek milliy musiqa madaniyatida Samarqand bastakorlari yaratgan qo'shiqlarni kuylash bilan bog'liq taxliliy, tavsifiy va usuliy tavsiyalar .

1.1. Musiqiy asarlar va adabiyotlar tahlili.

O'zbek milliy musiqa san'ati asrlar osha o'zbek xalqi tomonidan ulug' ma'naviy qadriyat sifatida ardoqlab kelingan. U yillar osha og'zaki uslubda shakllanib, rivojlanib kelgan; xalq orasidan ajoyib bastakorlar, ijrochilar yetishib chiqqan. O'zbek musiqa ijodkorligi asosan bastakorlik uslubida shakllanib kelgan. Hozirgi davrga kelib esa o'zbek musiqa san'atida Yevropa musiqa nazariyasiga asoslangan kompozitorlik uslubi ham keng rivojlandi va bu uslubda o'zbek kompozitor - bastakorlari ham ko'plab musiqa durdonalarini yaratmoqdalar. Kompozitorlarning asosiy ijod manbai bu xalq musiqasidir. O'zbek bastakor va kompozitorlari ana shu cheksiz manbadan foydalanib musiqa san'atining turli janrlarida ijod qilmoqdalar.

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi (dastlabki nomi «O'zbekiston kompozitorlar soyuzi») O'zbekiston Xalq Komissarlari kengashining 1938 yil № 203-r qaroriga binoan tashkil topgan. Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan kompozitor va musiqashunoslarni g'oyaviy va ijodiy birlashtirish maqsadida O'zbekiston xalq artisti, atoqli kompozitor va dirijyor Tolibjon Sodiqovga uyushmani tuzish uchun rasman vakolat berildi. Respublika hukumatining xalq Komissarlari 1940 yil 21 fevral № 258 - qaroriga binoan O'zbekiston bastakorlar uyushmasi 1 syezdini 1941 yil oktyabr oyida o'tkazish belgilandi hamda a'zolari tasdiqlandi: Tolibjon Sodiqov—rais, Muxtor Ashrafiy - rais o'rinbosari, Karim Abdullayev - mas'ul kotib, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Nikolay Mironov, Aleksey Kozlovskiy, Yelena Romanovskaya, Mutal Burhonov, Viktor Uspenskiy, Sharif Ramazonov, Imomjon Ikromov, Matyusup Xarratovlar - hay'at azolari qilib saylandilar. K. Abdullayev o'z arizasiga ko'ra mas'ul kotib vazifasidan ozod etilgach, o'rniga musiqashunos Ye. Ye. Romanovskaya saylandi.

Sobiq ittifoq hukumati qaroriga asosan 1939 yili «Kompozitorlar uyushmasi» va «Musiqa fondi» ta'sis komiteti tashkil etilgan edi. Hay'at raisi vazifasiga atoqli kompozitor va musiqashunos, akademik Boris Vladimirovich Asafyev (adabiy taxallusi Igor' Glebov (1884 - 1949) tayinlandi. Uyushmaning birinchi tashkiliy qurultoyini o'tkazish 1941 yil noyabr oyiga belgilandi. Mazkur tashkilot tarkibiga boshqa respublikalar uyushmalari

qatori O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi ham kiritildi va «O'zbekiston musiqa fondi bo'limi» tashkil topdi. Sinsadze – direktor, Kolesnichenko bosh hisobchi etib tayinlandilar. 1941 yil 22 iyunida boshlangan Ikkinchi Jahon urushi mazkur ijodiy uyushma qurul-toylarini o'tkazishga imkoniyat bermadi. Urush yillari O'zbekiston kompozitorlar uyushmasi va uning «Musiqa fondi» jangovar shtabga aylandi. Ayrim sanatkorlar qo'llariga qurol olib jang maydonlariga otlandilar, qolganlari esa adabiyot va sanatning rivojlanish jarayonida faol mehnat va ijod qildilar. Bastakor va kompozitorlar, shoir va dramaturglar bilan hamkorlikda musiqaning barcha shakl va janrlarida ijod qilib, yangi - yangi musiqiy va sahna asarlar yaratdilar. Bu jarayonda, yuqorida tilga olingan hay'at a'zolari bilan birgalikda K. Jabborov, F. Sodiqov, S. Kalonov, N. Xasanov, P. Raximov, M. Niyozov, Nishonov, M. Salimov, O. Toshmatov (Orif garmon), K. Mansurov, M. Murtazayev, A. Allaberganov kabi bastakorlar, 1941 yilning iyun oyida Toshkent davlat konservatoriyasining ilk bitiruvchilari I. Akbarov, B. Giyenko, V. Meyen, I. Hamzin (urushda xalok bo'lgan) hamda konservatoriya pedagoglaridan G. Mushel, B. Nadejdin, Yan Pekker va yuqori kurs kompozitor - talabalari urush mavzusiga bag'ishlangan asarlar yarata boshlashdi. Bu ijodiy jarayonga Moskva va Leningrad, shuningdek, Belorusiyadan vaqtincha ko'chib kelgan taniqli kompozitorlardan B. Arapov, S. Vasilenko, V. Voloshinov, L. Revuskiy, O. Chishko, Yu. Tyulin, M. Shteynberg, N. Boguslavskiy, G. Taranov va Leningrad konservatoriyasining professor, pedagog va talabalari ham qo'shildilar.

1948 yil 11 - 14 oktyabrda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining 1-qurultoyi bo'ldi. T. Sodiqov hisobot ma'ruzasida respublikamiz musiqa madaniyatining rivojlanishidagi yutuq va muammolariga to'xtab o'tdi. Qurultoy dasturida kompozitorlarning musiqali spektakllari, turli janrlarda yaratilgan musiqali asarlari yangradi. Qurultoyda uyushmaning hay'at azolari, rais lavozimiga kompozitor Sobir Boboyev, rais o'rinbosari lavozimiga B. Giyenko, taftish komissiyasi a'zolari va uning raisi etib I. Akbarov, «O'zbekiston musiqa fondi» hay'at a'zolari, uning raisi etib V. Meyen saylandi. Direktor vazifasiga R. Gisin tasdiqlandi.

Shuni aytib o'tish joizki, 1945 - 59 yillarda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga konservatoriyani bitirgan 27 nafar yosh kompozitorlardan quyidagilar qabul qilindi: I. Hamroyev, G'. Qodirov, G. Sobitov, Pak Yendin, I. Akbarov, G. Zubatov, V. Knyazev, X. Izomov, D. Zokirov, S. Boboyev, D. Soatqulov, S. Abramova, A. Berlin, X. Raximov, S. Varelas, A. Muhamedov, V. Zudov, F. Nazarov, O. Salimov, Yu. Nikolayev, A. Malaxov, F. Yanov - Yanovskiy; Konservatoriyani bitirgan 54 nafar yosh musiqashunoslardan I. Dulgarova, Yu. Kon, K. Alimbayeva, F. Karomatov, M. Kovbas, A. Asinovskaya, T. Solomonova, T. Adambayeva, T. Golovyans, T. Jumayev, M. Axmedov va N. Yanov-Yanovskayalar qabul qilindi.

1955 yilning 10 - 16 dekabrda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining II - qurultoyi bo'lib o'tdi. Uning dasturida uchta simfonik konsert, bitta o'zbek

xalq cholg'ulari orkestri konserti, kamer konsert, xor konserti hamda G. Mushelning «Raqqosa» baleti, T. Sodiqov va R. Glierning «Gulsara» operasi, T. Jalilov va G. Mushellarning «Muqimiy» musiqali dramalari namoyish etildi. S. Boboyev «O'zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanish jarayoni, muammolari va san'atkorlarning vazifasi» mavzuida ma'ruza qildi. Minbarga chiqqanlar konsert dasturlariga kiritilgan asarlarning yutuq va kamchiliklari, musiqani targ'ibot qilishdagi muammolar to'grisida o'z fikr va mulohazalarini bayon qildilar. Hay'at raisi lavozimiga Mutal Burhonov, uning o'riibosari etib B. Giyenko, mas'ul kotib etib M. Aliyev, taftish hay'ati raisi etib I. N. Karelova saylandilar. «O'zbekiston musiqa fondi» raisi vazifasiga V. A. Meyen, direktori etib L. R. Gisin tasdiqlandi.

1960 - yilning 8 – 14 iyunida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining III - qurultoyi bo'ldi. Uning konsert dasturida kompozitorlarning turli shakl va janrlarda yaratgan yangi musiqiy asarlari 7 ta konsertda namoyish qilindi, shuningdek, quyidagi spektakl va kinofilmlar delegat va mexmonlar e'tiboriga xavola etildi: S. Yudakovning «Maysaraning ishi» operasi, T. Jalilov va G. Sobitovlarning «Nurxon» musiqali dramasi, I. Akbarov musiqasi bilan «Ikkinchi gulshan» va M. Leviyev musiqasi bilan «Mahallada duv - duv gap» («Syurpriz») badiiy kinofilmlari ko'rsatildi. M. Burhonov «O'zbekiston musiqa san'atining rivojlanish jarayoni va san'atkorlarning vazifalari» mavzuida ma'ruza qildi. U respublikaning musiqiy hayotidagi yutuq va kamchiliklarga, hamda yechilmagan muammolariga to'xtalib o'tdi. Shu bilan birga kompozitorlarning ijodiy faoliyatidagi jiddiy nuqsonlar tanqid ostiga olindi. Taftish hay'ati raisi I. N. Karelova o'z ma'ruzasida M. Burhonov so'zlarini tasdiqladi. Qurultoy kun tartibi haqida qaror qabul qildi va tashkiliy masalani ko'rib chiqdi. O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining hay'at raisi lavozimiga Sobir Boboyev, uning o'rinbosari etib H. Raximov, mas'ul kotib A. A. Berlin, taftish hay'at raisi lavozimiga I. N. Karelovalar saylandilar.

«O'zbekiston musiqa fondi» hay'at azolari va uning raisi etib I. Akbarov saylandilar. Fond direktorligiga L. R. Gisin tasdiqlandi.

1962 yilning 13 - 18 fevralida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining navbatdan tashqari bo'lib o'tgan IV - syezdida S. Boboyev va D. B. Kabalevskiylar maruza qilishdilar. Syezd konsert dasturida turli janrlarda yaratilgan musiqiy va sahna asarlar namoyish qilindi.

1965 yilning 7 – 15 martida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining V - syezdi bo'ldi. Syezd dasturida turli janrlarda yaratilgan asarlar, jumladan S. Boboyevning «Hamza», M. Ashrafiyning «Shoir qalbi», M. Yusupovning «Xorazm qo'shig'i» va R. Hamroyevning «Zulmatdan ziyo» operalari, G. Mushelning «Kashmir afsonasi» baleti, M. Leviyevning «Toshbolta oshiq», S. Boboyevning «Ikki bilaguzuk» va A. Muhamedovning «Jon qizlar» musiqali komediyalari, Hamid Raximovning «Ishqing bilan» musiqali dramasi namoyish qilindi. Hay'at raisi S. Boboyev «O'zbekiston kompozitorlari va musiqashunoslarining ijodiy faoliyatidagi yutuq va muammolar» mavzuida ma'ruza qildi. Syezd tashkiliy masalani ko'rib

chiqdi. Uyushma hay'ati rais lavozimiga Ahmad Hamidovich Jabborov, uning o'rinbosari etib B. Giyenko, mas'ul kotiblikka G'. Qodirov, taftish hay'ati va uning raisi vazifasiga Tovur Jumayev, «O'zbekiston musiqa fondi» hay'ati a'zolari, uning raisi etib Ilyos Akbarov saylandi. Fond direktori lavozimiga

M. T. Gisin tasdiqlandi. 1967 - yilning sentyabr oyida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining Qoraqalpog'iston bo'limi ochildi. Bunga bag'ishlangan ikkita konsertda Qoraqalpoq kompozitorlarining turli janrlardagi asarlari va ikkita musiqali drama namoyish etildi, O'zbekiston Kompozitorlar uyushmasining hay'at raisi A. X. Jabborov ma'ruza qildi. Mazkur uyushma bo'limining raisi lavozimiga Olimjon Halimov, mas'ul kotiblikka Tojigul Adambayevalar saylandilar.

1971 yilning 15 noyabr 2 dekabr kunlari O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining VI - syezdi bo'ldi. Uning dasturida kompozitorlarning simfonik, vokal - simfonik, kamer cholg'u, kamer - vokal asarlari, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun kuy va qo'shiqlar, qo'shiq va romans, estrada, xor jamoalari va bolalar uchun yozilgan asarlar yangradi. quyidagi sahna asarlari: A. Berlinning «To'y kuni» (A. Rozov librettosi) operasi, M. Ashrafiyning «Temur Malik» baleti, R. Vil'danovning «O'n ikkinchi kecha» (Shekspir pyesasi asosida) musiqali komediya, D. Zokirov va K. Jabborovlarning «Mening jannatim» (S. Abdulla pyesasi) musiqali dramalari namoyish etildi. Hay'at raisi A. K. Jabborov O'zbekiston kompozitor va musiqashunoslarning ijodiy faoliyatlari respublikaning zamonaviy musiqiy san'atining rivojlanish jarayonidagi yutuq va muammolar hamda musiqa targ'ibotidagi nuqsonlar to'g'risida ma'ruza qildi. Hay'at azolari va uning raisi lavozimiga A. K. Jabborov, uning o'rinbosari etib B. Giyenko, mas'ul kotiblikka E. Soliqov, taftish hay'ati a'zolari va uning raisi etib T. Jumayev, «O'zbekiston musiqa fondi» hakami va uning raisi lavozimiga I. Akbarov saylandi. Direktor bo'lib O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Toshtemir Sharipov tasdiqlandi. 1976 yilning 12 - 19 martida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining VII-syezdi bo'ldi. Syezdning konsert dasturida kompozitorlarning turli janr va shakllarda yaratgan yangi musiqiy asarlari yangradi. N. Zokirovning «Sohil bo'yida to'qnashuv» operasi, M. Ashrafiyning «Muhabbat va qilich» («Temur Malik») baleti, S. Jalilning «Laqma», M. Leviyevning «Zamonali va Omonali» musiqali komediyalari namoyish qilindi. Tashkiliy masala ko'rilib, hay'at a'zolari va uning raisi lavozimiga Enmark Solihov saylandi. Uning o'rinbosarlari lavozimiga B. Giyenko va N. Zokirov, mas'ul kotiblikka V. Zudov saylandilar. «O'zbekiston musiqa fondi» hay'ati va uyushmaning raisi I. Akbarov saylandi. Fond direktori etib T. Sharipov tasdiqlandi.

1982 yilning 13 - 19 iyunida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining VIII syezdi bo'ldi. Uning dasturida N. Zokirovning «Uyg'onish» nomli operasi, A. Berlinning «Vasilisa prekrasnaya» bolalar uchun baleti, T. Xrennikoviing «Lyubovyu za lyubov» baleti, E. Solihovning «Xo'ja Nasriddin» operettasi ijro etildi. Hay'at raisi Enmark Solixov va taftish hay'ati raisi Tovur Jumayev

hisobot maruza qildilar. hay'atining birinchi kotibi lavozimiga Sobir Boboyev, mas'ul kotiblik Mirsodiq Tojiyev, Aleksandr Berlin, Ulug'bek Musayev va Galina Kuznesovalar, taftish hay'ati va uning raisi etib M. S. Kovbas, «O'zbekiston musiqa fondi» hay'ati va raisi qilib Ilyos Akbarovlar saylandilar. Musiqa fondi direktori etib Toshtemir Sharipov tasdiqlandi. (izoh: Bastakorlar uyushmasi hay'atining birinchi kotibi Sobir Boboyev bemor bo'lib qolganligi sababli, o'z arizasiga ko'ra 1984 yilning oktyabr oyida vazifasidan ozod etildi. Uning o'rniga Mirsodiq Tojiyev, mas'ul kotib lavozimiga kompozitor Rustam Abdullayev, musiqashunos Irina Kul'bashnayalar tayinlandi).

1987 yilning 12 - 18 dekabrda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining IX syezdi bo'ldi. Musiqali teatrlarda R. Abdullayevning «Quyoshga ta'zim» balet - oratoriyasi, S. Jalilning «Zebuniso» operasi, U. Musayevning «To'maris» baleti, M. Bafoyevning «Yettinchi jin» musiqali dramasi, M. Leviyevning «Mangulik» musiqali dramasi tomosha-binlarga havola etildi. Syezd minbaridan uyushmaning birinchi kotibi Mirsodiq Tojiyev va taftish hay'ati raisi M. S. Kovbas hisobot ma'ruza qildilar. Uyushma hay'ati raisi lavozimiga musiqashunos Ahmad Hamidovich Jabborov, masul kotiblik kompozitorlar Ulug'bek Musayev va Rustam Abdullayevlar, taftish hay'ati va uning raisligiga Rustambek Abdullayev, «O'zbekiston musiqa fondi» hay'ati va uning raisi, Mardon Nasimov saylandi. Fond direktori etib Toshtemir Sharipov tasdiqlandi.

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining tashkil topganiga 50 yil to'lishi munosabati bilan 1988 yilning 27 noyabridan 8 dekabrigacha yubiley Plenumi bo'lib o'tdi. Plenum konsertlari va ijodiy uchrashuvlar haqiqiy musiqa bayramiga aylanib ketdi. Plenum ishini tugallash arafasida 24 - 26 noyabr kunlari dunyodan ko'z yumgan kompozitorlar va musiqashunoslarga bag'ishlangan «Xotira kechalari» o'tkazildi va qabrlari ziyorat qilindi. Marhum kompozitorlarning musiqiy asarlari uchta konsert dasturida jarangladi. N. Zokirovning «Gamlet» S. Yudakovning «Maysaraning ishi» operalari, R. Abdullayevniig «Quyoshga ta'zim» balet - oratoriyasi M. Ashrafiyning «Sevgi tumori» baleti, U. Musayevning «To'maris» hamda Samarqand opera va balet teatrida D. Qodirovaning «Sayyora» baleti,

M. Bafoyevning «Prometey» musiqali dramasi, E. Solihovning «Xo'ja Nasriddin» operettasi tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi.

Shuni aytib o'tish joizki, XX asrning 60 - 70 - 80 - yillarida O'zbekistoi Bastakorlar uyushmasi tashabbusi bilan Toshkentda har yili O'rta Osiyo va Qozogiston kompozitorlarining asarlaridan «Simfonik musiqa festivali» o'tkazildi. Mazkur festivalni o'tkazishda O'zbekiston xalq artisti, professor dirijyor Z. Haqnazarov rahbarligidagi simfonik orkestrning faoliyati muhim rol o'ynadi.

1972 ning may oyida O'zbekistonda «Gruziya musiqa haftaligi», 1 - 7 noyabrda esa «O'zbekiston musiqa haftaligi» Gruziyada bo'lib o'tdi. Mazkur haftaliklarda gruzin va o'zbek kompozitorlarining simfonik, vokal - simfonik, kamer - cholg'u, kamer - vokal musiqiy asarlari konsert dasturlarida

jarangladi. Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlari musiqa bilim yurtlari, bolalar musiqa maktablarida va shahar faollari bilan gruzin kompozitorlarning ijodiy uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvlarning konsert dasturida gruzin va o'zbek ijrochilari faol qatnashdilar. Xuddi shunday o'zbek kompozitorlarining ijodiy uchrashuvlari va konsertlari Tbilisi, Barjomi, Kutaisi, Suxumi va Poti shaharlarida bo'lib o'tdi. Bu ijodiy uchrashuvlar va konsertlar ikki xalqning musiqiy bayramiga aylanib ketdi. O'zbekistondan A. Jabborov rahbarligida M. Ashrafiy, M. Burhonov, S. Yudakov, B. Giyenko, Sayfi Jalil, S. Boboyev, R. Abdullayev kabi kompozitorlar, dirijyor B. To'laganov, skripkachi Marlis Yunusxonov, xonandalar

M. Xojiniyozov, R. Yusupova, T. Sharipov va Gruziya san'atkorlari faol qatnashdilar.

1991 yilning 1 sentyabri O'zbekiston mustaqilligi bayrami deb e'lon qilindi. O'zbekistonda sobiq totalitar davlat o'rniga mustaqil demokratik, huquqiy davlat o'rnatildi. Bular tufayli mustaqil davlat qurilishida respublikada jahon sivilizasiyasi tomonidan erishilgan tajriba va siyosiy - huquqiy ta'limotlar, xalqimizning boy haqiqiy, madaniy merosini mukammal tiklashga, o'rganishga katta imkoniyatlar vujudga keldi. O'zbekistonda keskin ravishda siyosiy - ijtimoiy, iqtisodiy - madaniy hamda ma'naviy o'zgarishlar yuz berdi. Prezidentimiz I.A.Karimov iftixor bilan ta'kidlaganidek, «Ma'naviyat-insoniyatning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch quvvatidir». Respublikamizdagi iqtisodiy - ijtimoiy va madaniy hayotdagi bunday ijobiy o'zgarishlar xalqimizni, yangi - yangi ijodiy zafarlarga chorlamokda.

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi a'zolarining 1990 yil 29 oktyabrda o'tkazilgan umumiy majlisida tashkilotning yangi Nizomi ishlab chiqilib, 1991 yilning 3 yanvarida tasdiqlandi va o'sha kundan kuchga kirdi. Mazkur Nizomda uyushma maqsadi va vazifalari aniqlandi. Uyushmaning asosiy maqsadi: «O'zbekiston milliy musiqasini keng ko'lamda boyitish va yuksaltirish, O'zbekistonda yashaydigan boshqa xalqlar musiqasi kamol topishiga muntazam yordam berish, musiqiy tarbiyalashga butun kuch - qudratini safarbar etish, O'zbekiston kompozitor va musiqashunoslarini jumhuriyat va xorijiy davlatlarda targ'ibot qilish» dan iboratligi belgilab olindi.

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasining a'zolari ozod va obod Vatanimizning musiqiy madaniyatini rivojlantirish jarayonida faol ijod qilmoqdalar. Mustaqillikning o'tgan davrida kompozitorlar A. Navoiy nomidagi opera va balet teatrini, ayniqsa, Muqimiy nomidagi musiqali teatrni va viloyatdagi barcha teatrlarni, milliy simfonik orkestrni, xor jamoalarini o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestrlarini, estrada simfonik orkestrini, kamer simfonik orkestrini, drama teatrlarni, bolalar xor jamoalarini, O'zbekiston Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va chegarachilar qo'shinlari tarkibidagi «Ashula va raqs ansambli» va damli cholg'u asboblari orkestrlari va boshqa ijrochi jamoalarining repertuarlarini yangi - yangi musiqiy asarlar, spektakllar bilan doimiy ravishda boyitib kelmoqdalar. Shu bilan birga uyushma a'zolari respublikamizda har yili o'tkazilayotgan «O'zbekiston — Vatanim manim»

qo'shiq tanlovida, har ikki yilda Samarqand shahrida o'tkazilayotgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivallarida faol qatnashmoqdalar. Zamonaviy simfonik musiqa san'atini rivojlantirish va targ'ib qilish niyatida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi, O'zteleradio kompaniyasi, O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi va «O'zbeknavo» bilan hamkorlikda har ikki yilda Toshkent «Xalqaro simfonik musiqa festivali» nomli anjumanni, Yoshlar «Ilhom» teatr jamoasi har yili Toshkentda «Xalqaro zamonaviy musiqa festivalini», Bastakorlar uyushmasi «Davr sadolari» anjumanini o'tkazib kelmoqda. Mazkur festivallarni o'tkazishda kompozitor va musiqashunoslar tashkilotchi va musiqa muallifi sifatida ishtirok etmoqdalar.

1995 yilning 1 - 6 noyabrida O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi X qurultoyini o'tkazdi. 6 kun davom etgan qurultoy dasturida kompozitorlarning turli shakl va janrlarda yaratgan asarlari jarangladi. Konsert dasturida quyidagi sahna asarlari tomoshabinlar etiboriga havola etildi: N. Zokirovning «Taxtga yo'l», M. Bafojevning (O. Uzoqov va J. Kamol librettosi) «Umar Hayyom», S. Jalil va T. To'lalarning «Malikai sayyor» operalari, S. Hayitboyev, E. Samandarovlarning «Bashorat», F. Alimov, O'. Umarbekov, R.Ma'diyevlarning «Fotima va Zuhra», Sh. Shoyimardonova, X. G'ulomlarning «Muhabbat navosi» musiqali dramalari, A. Mansurov, N. Qobillarning «Bir soatlik halifa» musiqali komediyasi namoyish etildi. Qurultoy tashkiliy masalani ham ko'rib chiqdi. Uyushmaning kengash a'zolari saylandi. Kengash raisi lavozimiga kompozitor Rustam Abdullayev, o'rinbosarlar etib kompozitor Habibulla Raximov, musiqashunos Ravshan Yunusov va bastakor Avaz Mansurovlar, taftish hay'ati va uning raisi qilib musiqashunos Rustambek Abdullayev saylandi. Uyushma «O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi» deb ataldi va Nizomga ayrim o'zgarishlar kiritildi.

1.2. Samarqand bastakorlari yaratgan asarlarni tavsiflash.

Muammoning o'rganilish tarixi, ushbu kitobning maqsadlari va vazifalarini bayon etishdan avval, shaharning tarixiy o'tmishiga qisqacha sayohat qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, bu uning boy va o'ziga xos madaniyatining qadimiy ildizlarini ko'rishga imkon beradi. Arxeologik qazishlar ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarga eramizdan avvalgi VI asrlardayoq asos, solingan edi. Hozirgi Samarqand hududida qadimiy shahar Maroqand (e.a. V -asr) va Afrosiyobning (eramizning V-VII asr), so'g'diy-Ellin (e.a. III-I asr), so'g'diy-qang'uy (eramizning I-IV asrlari) davrlaridayoq me'morchilik va san'atning qimmatli yodgorliklari bo'lgan.

Qadimdayoq Samarqandda yozuv mavjud bo'lib, bu haqda Afrosiyobdagi saroy xonalari devorlaridagi so'g'd yozuvlari guvohlik beradi. Samarqandning san'ati naqshinkor bezaklar, yog'ochga va ganchga naqsh solish, metallga o'yma naqsh tushirish, zargarlik buyumlari bilan mashhur bo'lgan. Moddiy madaniyat bilan birgalikda Samarqandda qadim zamonlardan fan va ma'naviyat-madaniyat

ham rivojlangan.

Olimlarning fikriga ko'ra, Samarqand "Movorounnahr adabiy hayotining beshigi bo'lgan va O'rta osiyoda istiqomat qiluvchi xalqlarning turkiy tilli va forsiy tilli adabiyotlarning rivojlanishda muhim rol o'ynagan".

Samarqand uchun qadim zamonlardan ikki xalqlar-turkiy tilli (o'zbeklar) va forsiy tilli (tojiklar) madaniyatlarining chambarchas chatishib ketishi xarakterlidir. Fors-tojik va turkiy madaniyatlarining asrlar davomidagi chuqur aloqalari nafaqat adabiyot, balki musiqada ham namoyon bo'lib, bu ayniqsa musiqa asboblarning birligida ko'rinadi (qo'buz, yotugan, ud, chang, rubob, tanbur). Ko'pchilik o'rta asr shoirlarning ijodida she'riyat va musiqa chambarchas bog'lanib ketgan. Masalan, kelib chiqishi bo'yicha Samarqandlik bo'lgandir.

Shuni ham hisobga olish kerakki, arxeologlar, tarixchilar, musiqashunoslarning guvohlik berishga bu asboblardan biri-o'ra asrlar udi (udning bir turi) sharqda, jumladan Afrosiyobda qadimdan tarqalgan bo'lib, Yevropada esa ud ijrochiligi ancha keyin ma'lum bo'lgan edi.

O'rta Osiyoda ancha keyingi davrlargacha, deyarli XX asrgacha saqlanib kelgan o'rta asrlar davri musiqaviy-ijtimoiy hayotning eng ilg'or an'analarning tug'ilishi Samarqand bilan bog'langandir. Bunda o'rta asrlardagi O'rta Osiyo shaharlarning musiqaviy va adabiy hayotidagi eng ahamiyatli va jonli shakli-majlislar nazarda tutiladi. A.Jumayevning qayd etishi bo'yicha "Ular juda qadimiy an'analarga ega bo'lgan, biroq tarixning temuriylar davridagi (XIV -asrning ikkinchi yarmi-XV asr) ikki madaniy markazi-Samarqand va Hirotda ayniqsa keng tarqalishga erishgan.

Buning sababi, bu davrda turli san'atlar va fanning gurkirab rivojlanishi, shuningdek iqtisodiy yutuqlar va savdo munosabatlarining rivojlanishi oqibatida ma'naviy madaniyatning umumiy yuksalishi ham yuz bergan.

Majlislar ishtirokchilari maqomlarning yaxshi bilimdonlari edi. A.Jumayev ta'kidlaganidek, Muhammad Nishopuriyning "Risola dar ilmi musiqa" (musiqa fani haqida traktat) asarida ko'rsatilishicha, barcha maqomlar ichida eng yoqimlisi "Majlisi afruz" (Alangalanuvchi majlis) degan alohida nom olgan Iroq maqomi bo'lgan.

Maqomlarni nafaqat olimlar, shoirlar, musiqachilar bilganlar, ular xalq tomonidan ham sevilgan, qishloq va shaharlarda keng ijro etilgan. Biz o'rta asrlar to'g'risida ma'lumotlarga ega emasmiz, biroq XIX asrda ko'plab oddiy dehqonlar o'zlari yoqtirib qolgan Shashmaqom kuylarini bilishgan, mutaxassislarning tasdiqlashi bo'yicha shashmaqom XVIII asrda uzl-kesil shakllangan.

Samarqandda qariyb qirq yil yashagan S.Ayniy o'z "Esdaliklarining" birinchi kitobida yozadiki, "G'ijduvon va Vobkent tumanlari dehqonlarining katta qismi ashulachilar va shashmaqom bilimdonlari edi. O'zlarining savodsizliklariga qaramasdan, ular qadimiy kuylarni va mumtoz shoirlarning g'azallarini yaxshi bilishadi, bu ularga otalar va bobolaridan og'zaki shaklda o'tib kelgan".

Shashmaqomning Samarqand ijrochilarning sevimli poetik matnlari Bedil va Xofizning she'rlari bo'lgan, biroq xalq tomonidan yaratilganlari ham kam emasdi. R.Amonovning tasdiqlashicha, "Shashmaqom" she'rlarining ma'lum bir qismi

xalq og'zaki ijodiga taaluqli va tojik folklorchilari tomonidan Tojikiston va O'zbekistonda yozib olingan.

Samarqand hech qachon O'rta Osiyoning boshqa shaharlaridan ajralagan holda rivojlanmagan. Samarqandning ko'plab Sharq shaharlari va davlatlari bilan chuqur aloqalari tarixiy sharoitlar bilan belgilanadi: Temur hukumronligi vaqtida, 1370 yildan 1405 yilgacha Samarqand Sirdaryo va Zarafshondan Hind va Ganggacha, Tyan-Shandan Bosforgacha yastanib yotgan ulkan imperiyaning poytaxti bo'lgan. Temuriylar davrida, ayniqsa Temurning nabirasi, jahonning buyuk olimlaridan biri-sulton Ulug'bek Muhammad Tarag'ay hukumronligi vaqtlarida (1394-1449) Samarqandning fan va madaniyati yuqori yuksalishga erishadi.

Ulug' astranom va matematik bo'lgan Ulug'bekning rasadxonasida mashhur astronomik jadval "Ziji ko'ragoniy" tuzilgan. Jadval ustida Ulug'bek bilan birgalikda Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Meriyem Chalabiy, Birasandiy kabi Sharqning mashhur olimlari mehnat qilishgan. Bu yerda XV asrning birinchi yarmida "Arifmetika kaliti" asarining muallifi, matematik Jamshid Koshiy ishlagan. Ulug'bekning o'zi nafaqat buyuk olim-astranom bo'lgan, balki, risolalarda yozilishicha, musiqaning bilimdoni va bir qator musiqaviy usullar: "Shodiyona" (ushbu nom ostidagi usul bizgacha yetib kelgan), "Usuli ravon", "Usuli bahri" va boshqalarning muallifi bo'lgan. Samarqandda adabiyot va san'atning mashhur namoyondalari-shoirilar Sakkokiy, Bisotiyi Samarqandiy, Badaxshiy, Durbek, minatyurachi-rassomlar Abdurahim va Abdukarim ijod qilganlar. O'rta asrlar samarqandining xarakterli belgisi o'sha davrdagi buyuk aql egalari qiziqishlarining ko'p qirraliligi, ular bilimining ensiklopedikligi edi. Masalan, o'zining falsafiy-poetik ruhoilari bilan dong taratgan Umar Xayyom (1048-1131) algebraning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan. Samarqandda uning tomonidan mashhur algebra risolasi asosiy qismi yozilgan.

Xayyomning tadqiqotlari Sharqdagi kabi, G'arbda ham matematikaning keyingi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumki, musiqa haqidagi to'plam ham Xayyom qalamiga mansubdir.

Temur saroyi huzurida ishlagan musiqachilar orasida mashhur musiqachi-nazariyotchi Xo'ja Abduqodir Marog'iy (XIV-XV asr) ham bo'lgan. Uning "Ja'mial alxon" (Ohanglar to'plami) va "Maqasid-ul-alxon" (Ohanglarning o'rinlari) asarlarida XIV-XV asrlardagi musiqa nazariyasining muammolari ochib berilgan.

Abdurahmon Jomiy ham qiziqishlarining ko'p qirraliligi bilan ajralib turgan. Musiqaviy madaniyat tarixiga u musiqaviy-nazariy fikrning rivojida salmoqli rol o'ynagan "Musiqa haqida risola" ning muallifi sifatida kiradi. Uning ijodi Samarqand hayoti bilan mustahkam bog'langan bo'lib, bu yerda u birmuncha muddat yashagan, keyinchalik esa vaqti-vaqti bilan kelib turgan.

Tarix Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning ijodiy hamdo'stligi to'g'risida to'liqintiruvchi ma'lumotlarni saqlagan.

Yosh Navoiy bir necha yil davomida (1465-1469 y.) Samarqandda yashagan, mashhur olim Fazlulloh Abu Lays madrasasida o'qigan. Madaniy

hayotning umumiy muhiti, Abdurahmon Jomiy bilan, shuningdek mahalliy olimlar, Ulug'bek madrasasi mudarislari Xo'ja Xurd, Aloiy Shoshi va boshqalar bilan muloqotlar Alisher Navoiyning dunyoqarashi va ijodiy shaxsining shakllanishiga ta'sir etmasdan qolmadi.

U Samarqandda mashhur shoir bo'lib yetishadi, xalq orasida tez va keng tarqalgan qasidalar, g'azallar bitadi. Samarqanddagi hayotining ayrim taassurotlarini Navoiy keyinchalik o'z poemalarida mujassamlashtiradi.

Musika nafaqat majlislarda yangrab turadi, balki Sharq xalqlari madaniy hayotida o'quv yurtlari sifatida muhim rol o'ynagan madrasalar turmushiga ham kirib bordi. Madrasa "Nafaqat diniy maktab edi, ko'proq teologiyaga (dinshunoslikka) qaratilgan universitet hisoblanib, bu hol umuman olganda o'sha davrdagi G'arbiy Yevropa universitetlari uchun ham xos edi".

Ko'pgina Samarqand olimlari musiqa haqida risolalar yozganligi ibratlidir. Ulug'bek, Bibixonim, Ahmad Hojibek, Fazlulloh Abu Lays madrasalari bilan chambarchas bog'langan ko'plab taniqli musiqachilarning nomlari saqlangan. Adabiy manbalarda shoir, xattot va musiqachi Amir Ali Akbar Samarqandiy (XVI asr), tabib-jarroh, shoir-musiqachi Boqi Jarroh Samarqandiy (XVI asr) nomlari eslatiladi. Shoir, adabiyotshunos, musiqa nazariyotchisi Kohiy Mavlono Qosim (XV-XVI asr) qiziqarli shaxs bo'lgan. U Samarqandning So'g'd tumanida tug'ilgan bo'lib, Hirotida yashagan, Abduraxmon Jomiy bilan yaqin tanish bo'lgan, Zahridin Muhammad Bobur hukmronligi davrida Hindistonga borgan. She'rlar devoni (to'plami), "Gulafshon" (Guldor) poemasi uning qalamiga tegishlidir.

Shoir, adabiyotshunos tarixchi va musiqachi Mutribiy Samarqandiy (XVI-XVII asr) bilimlarining kengligi bilan ajralib turgan. XVI asr boshlaridagi o'zbek va tojik xalqlarining tarixi va madaniy hayotini o'rganish uchun qimmatli manba hisoblanuvchi "Tazkirat-ash-shuaro" (Shoirlar antalogiyasi), "Tarixi Jahongiriy" (Jahongiriylar tarixi) tadqiqotlari unga tegishlidir.

Samarqand madaniyati tarixiga shuningdek, musiqachilar Pirmuhammad kulol Samarqandiy (XVI asr), bir qancha risolalar muallifi Riyozi Samarqandiy (XV-XVI asr), Safoi Samarqandiy (XV asr), shoir, musiqachi-naychi Sulton Ahmad Devona Samarqandiy (X asr), "Ud" asbobida mashhur ijrochi Sulton Muhammad Udiy Samarqandiy (X asr), "Qonun" asbobini mohirona egallagan Xo'ja Ja'far qonuni Samarqandiy (XVI asr), Ustod Buloqi non Samarqandiy (XVI asr) qimmatli ulush qo'shdilar.

Samarqand musiqachilaridan XVI asrning ikkinchi yarmi XVII asr boshlaridagi olim Darvesh Ali Changiy ko'p martalab eslatiladi, uning ijodi Xorazm musiqachilari bilan Samarqanddagi uchrashuvlar vaqtida yaratilgan peshrav shaklidagi chog'lu asboblari uchun pyesalar muvoffaqiyati bilan bevosita bog'langandir. Uncha to'liq bo'lmagan nomlar ro'yxatining o'ziyoq Samarqandda yuksak rivojlangan og'zaki an'analarning professional san'ati mavjud bo'lganligi haqida guvohlik beradi. Bular bu yerda rivojlanib kelayotgan turli-tuman folklor ashulalari va raqs janrlari bilan birga bo'lgan. Ulardan ayrimlari turmushda hozirgi vaqtga qadar saqlanib kelmoqda va yangi, yanada zamonaviy variantlarda badiiy havaskorlik repertuarlariga kiritilgan.

Samarqand viloyatining Urgut tumanida, shuningdek, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarining u bilan chegaradosh qishloqlarida hamda Zarafshon vodiysi tojiklari uchun ayniqsa xarakterli bo'lgan "Qarsak" yoki "Beshqarsak" deb ataluvchi erkaklar ashula-raqs janri eng mashhur va keng tarqalgan edi. Samarqadda turmush folklorining boshqa janrlari ham katta o'rin egallagan. Har bir Samarqandilikning uyida musiqa yangrab turgan. Musiqa asboblari dutor va tanbur ayniqsa mashhur bo'lgan. Musiqa ko'plab marosimlar bilan ham chambarchas bog'langan. Hozirgi Samarqandliklarning ajdodlari yashagan Sug'd hududida va Xorazmda yangi yil bayrami bahorgi Navro'z ayniqsa keng tarqalgan.

Respublikaning boshqa shaharlariga qaraganda Samarqandda nikoh to'yi marosimlarining teatrlashganligi va ko'zga ko'rinarliligi sezilarli darajada bo'lgan, ularda musiqaviy rasmiylashuvning roli katta edi. Jumladan, nikoh to'yi yurishi yorqin, rang-barang tashkil etilgan. Shahar madaniy hayoti xususiyatlarining ayrim ijtimoiy tarixiy sarchashmalari to'g'risida faraziy taxminlar aytishimiz mumkin. Samarqand qadimdan ko'p millatli shahar bo'lgan. Samarqand aholisi Temur davrida ayniqsa ko'p sonli va ko'p tilli bo'ladi, uning buyrug'i bilan poytaxtga Hindiston, Misr va boshqa mamlakatlarning bo'ysundirilgan shaharlaridan olimlar, shoirlar, musiqachilar, rassomlarni keltirgan. Samarqandning madaniyati feodal nizolari va o'zaro urushlari, chet el bosqinchilariga qarshi kurashlarning murakkab sharoitlarida rivojlangan. Ijtimoiy haqiqatning asta-sekin anglab borilishi XVII asr adabiyot va san'atida yangi tendensiyalarni yuzaga keltiradi. Ayrim asrlarda hayotiy obrazlarni realistik gavdalandirishga intilish kuzatiladi.

Masalan, Sayid Kamol Zardo'z Samarqandiy o'zining "Tolibi Matlub" dostonida oddiy mehnatkashni bosh qahramon darajasiga chiqaradi hamda xalq hayoti manzaralarini realistik ifodalaydi.

Bu yillarda musiqaviy ijodiyot ham rivojlanishda davom etadi. O'rta Osiyoda hokimiyatga kelgan Shayboniylar bu yerda mavjud bo'lgan musiqaviy an'analardan ko'plarini qabul qildilar.

1.3. Milliy musiqamizda Samarqand qo'shiqchilari, dostonchilari va ularning salmoqlardorlik omillari.

XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asrning boshlarida mashhur qo'shiqchi, Shashmaqomning bilimdoni, turmushda keng tarqalgan o'zbek kuylarining ko'plab yangi variantlarining muallifi Hoji Abdulaziz Rasulov (1852-1936 yil) Samarqandning shuhratiga aylandi. Bu talantli musiqachi-taqlidchi va ustoz o'z tajribasini musiqachilarning bir necha avlodiga yetkazib berdi. Xoji Abdulaziz XX- asr boshlaridayoq Shashmaqomning umum tan olgan bilimdoni bo'lib, unda o'qish-o'rganish uchun O'zbekistonning turli burchaklaridan shogirdlar kelardi. Xoji Abdulaziz bilan birgalikda Oqilxon, Levicha, Qori Yoqub, Kamol Xofiz, Ma'rifatxon, Maqsadcha kabi ko'plab boshqa musiqachilar ham yetishib chiqdilar.

1964 yilgacha yashagan Samarqandlik qo'shiqchi Hojiqurbon Hamidov (1888 yilda tug'ilgan) ham XX asr boshlarida g'oyatda mashhur edi. U doira jo'rligida ashulalar aytib, bastakor, taqlidchi-askiyachi, o'yinchi sifatida ajralib turardi.

Rubob va tanburning ijro-o'yin usullariga o'z ovozini judayam o'xshata olgani uchun xalq orasida Hojiqurbonni "Hoji-tam-tam" deb atashgan. Hoji Abdulaziz ham, yosh Hoji tam-tam ham asosan, shoirlar, olimlar, san'at ixlosmandlarining majlis-yig'ilishlarida o'z mahoratlarini ochib berganlar. Shu bilan birga Hoji Abdulaziz Rasulovning repertuari maqomlar qismlari hamda og'zaki an'alarining boshqa musiqiy asarlaridan iborat bo'lgan, Hoji tam-tam esa turmush folklor ashulalarini keng targ'ib qilgan. Uning repertuariga "Yali-yali", "Omon-yor", "Karima ko'ylak", "Bor-braver, bormayman", "Biyoyak" ("Bir martagina kelgin"), "Meravam" ("Ketmoqdaman") va ko'plab boshqa xalq qo'shiqlari kirgan.

Qadim zamonlardan hozirgi kunlarga qadar ham Samarqand viloyati xalq an'analari ijrochiligining, dostonchilikning yirik markazi hisoblanadi. XIX-asrning ikkinchi yarmida Xatirchi, Nurota, Bulung'ur, Narpay dostonchilik maktablari shakllandi. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan Muhammadqul Jomurot o'g'li (Po'ltan shoir), Islom shoir Nazar o'g'li epik ijodiyotning yirik vakillari edilar. Ularning barchalari uzoq umr ko'rib, umumxalq e'tirofiga erishdilar. Butun respublikada tanildilar¹.

Musiqaviy-ijrochilik uslubining umumiyligi bo'lgani holda ularning har biri ijodning o'ziga xos belgilariga ham ega edilar. Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868- yilda Samarqand viloyatining Nurota tumanida tug'ilgan, 1937 yilda vafot etgan) baxshilar avlodidan bo'lib, uning barcha ajdodlari dostonchilar bo'lgan. Ergash Jumanbulbul o'g'li 18-20 yoshlaridayoq mashhurlikka erishadi. U ayniqsa lirik mazmundagi asarlarga qiziqib, shunga mos ijro usuliga ega edi.

Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872 yilda Samarqandning Bulung'ur tumanida tug'ilgan, 1955 yilda vafot etgan) qahramonlik - epik turkumidagi dostonlarga e'tibor qaratgan, Uning talqinidagi "Alpomish", "Yodgor", "Yusuf va Ahmad", "Murodxon", "Rustamxon", "Shirin va Shakar" kabi mashhur dostonlar atrof qishloqlar aholisining orasida ayniqsa sevimli edi.

Muhammadqul Jomurod o'g'li Po'ltan (1874 yilda Samarqandning Xatirchi tumanida tug'ilgan, 1941 yilda vafot etgan) yigirma yoshidayoq taniqli dostonchiga aylangan. "Go'ro'g'li" xalq dostonining bilimdoni bo'lgan. 1916 yilda Po'ltan Rossiyada bo'ladi va keyinchalik bu haqda o'zining "Mardikor" dostonida aytib o'tadi.

Islom shoir Nazar o'g'li (1874 yilda Samarqandning Narpay tumanida tug'ilgan, 1958 yilda vafot etgan) yigirma ikki yoshidan xalq dostonlarini mustaqil ijro eta boshlaydi. U ayniqsa "Qahramonnoma", "Bo'l omon", "Tinchlik bo'lur barqaror" va boshqa qahramonlik-vatanparvarlik turkumidagi dostonlarni sevib ijro etardi.

¹ Бу бахши шоирларнинг бронза ҳайкаллари шоирлар боғи яқинида Регистон майдонида қўйилган (Ҳайкалтарош Н.Содиқов)

Birinchi jahon urushining boshlarida keng xalq ommasi orasida milliy ozodlik harakati kuchayib, bu 1916 yilgi Jizzax qo'zg'olonida o'z aksini topdi. Bu voqyealar milliy ozodlik mazmunidagi o'zbek milliy qo'shiqlarining paydo bo'lishini rag'batlantiradi.

Birinchi jahon urushi yillarida taqdir taqozosi bilan Samarqandga chex harbiy asirlari kelib qoladilar, ular orasida bilimli, musiqaviy qobiliyatga ega kishilar ham bor edi. I.N.Karelovaning qayd etishicha, chex musiqachilari tufayli Toshkentda, Samarqandda simfonik orkestrlar paydo bo'ladi.

Samarqand simfonik orkestri Toshkentnikidan kichikroq bo'lsada, biroq u Gaydn, Mosart simfoniylari, Betxovenning beshinchi simfoniyasi, Grig va Chaykovskiyning fortepiano konsertlarini mahorat bilan ijro etardi, ularning ijrochisi (o'sha vaqtda Samarqandda yashagan) pianinachi-pedagog, Peterburg konservatoriyasining tarbiyalanuvchisi F.N.Kastalskaya edi.

Ma'naviy madaniyatning turli ko'rinishlari orasida musiqiy madaniyat katta o'rin tutadi. Musiqiy madaniyatning umumiy darajasining muhim ko'rsatkichi bo'lib ommaviy havaskorlik san'ati, ta'limi va tarbiyasi, teatr va konsert hayotining ahvoli hisoblanadi. Bu sohada Samarqandda salmoqli va namunali ishlar qilingan. Shunga qaramasdan XX asr davrdagi Samarqandning musiqiy madaniyati hozirgacha ham yetarlicha o'rganilmagan. Faqat ayrim, tartiblashtirilmagan ma'lumotlar, maqolalar, ocherklar, to'plamlargina mavjud xolos.

I.R.Rajabovning "Samarqandning musiqasi haqida" maqolasida XVI-XVII asrlarda Samarqandning musiqiy hayoti haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek unda Hoji Abdulaziz Rasulov repertuarining batafsil tahlili berilgan.

M.S.Kovbasning maqolasida Samarqandagi "Красный двигатель" zavodining xor jamoasi haqida gap boradi. Muallif XX asr 50 yillarda o'zbek havaskorlari uchun muhim bo'lgan ayrim muammolarni (unison xorlarning ko'pligi, malakali rahbarlarning yo'qligi, qishloq havaskorchiligining orqada qolgani) ko'tarsada, o'sha davr havaskorchiligida ro'y bergan jarayonlar va o'zgarishlarini chuqur tadqiq etish maqsadini qo'ymagan.

Samarqandda musiqiy ta'lim va havaskorlik to'g'risida ayrim ma'lumotlar S.K.Yo'ldoshevaning "O'zbekistonda musiqiy tarbiya va ta'limning rivojlanishi" kitobida keltirilgan. Unda 20 yillar oxirida musiqa va xoreografiya institutining faoliyati ko'rsatilib, Samarqandlik mashhur musiqachilardan ayrimlarining (Hoji Abdulaziz Rasulov va boshqalar) nomlari keltirilgan.

70-yillarda matbuotda e'lon qilingan I.N.Dulgarovanning "Turkiston xalq konservatoriyasi" M. S. Kovbasining "O'zbekistonda musiqiy ta'lim rivojlanishining ayrim masalalari", I. G. Yo'ldoshevning "O'zbekistonda bolalar musiqa ta'limining tarixidan" kabi maqolalar respublikada musiqa-o'quv yurtlari tarixining ayrim sahifalariga bag'ishlanib, Samarqand musiqiy madaniyatini aks ettirmaydi.

Shu tariqa, Samarqandda professional musiqiy ta'limning shakllanishining o'rganilishi respublikada musiqiy ta'limning umumiy yo'nalishi jihatidan ham, xarakterli tarixiy sharoitlar bilan belgilanuvchi ayrim o'zga xosliklar jihatidan ham

yetarlicha ochib berilmagan.

Samarqandning musiqa teatr va konsert hayoti deyarli o'rganilmagan. Samarqandda ashulachilik va musiqaviy-sahnaviy madaniyatining rivojlanish yo'llarini aniqlashga bag'ishlangan bir qator maqolalar ham ancha munozarali hisoblanadi. Bular T.S.Vizgoning "O'zbekistonda musiqa san'atining rivojlanishi va uning rus musiqasi bilan aloqalari", Ya. B. Penkerning "O'zbek operasi" tadqiqotlari. Z. M Mirhaydarova "O'zbekiston dramatik teatrida musiqa" nomli dissertasiyasi, S. Voxidov "O'zbek sovet qo'shiqchiligi" kitobi va boshqalardir.

Ushbu risolaning maqsadi Samarqandning musiqaviy madaniyatini kompleks qarab chiqish, undagi yetakchi tendensiyalarni umuman o'zbek madaniyatining umumiy belgilari yo'nalishida aniqlash, hamda muayyan tarixiy sharoitlar bilan taqozo etiluvchi ayrim xususiyatlarini ajratib ko'rsatishdir.

Havaskorlik san'ati, kasbiy musiqaviy ta'lim, teatr-konsert hayotini yetarlicha aniq va to'liq tavsiflash vazifasidan kelib chiqqan holda, mazkur risola uch bobdan iborat holda tayyorlandi: 1 - " Musiqaviy-badiiy havaskorlikning rivojlanish yo'llari ", 2 - " Kasbiy musiqaviy ta'lim ", 3 - " Samarqandning konsert va teatr hayoti ". Har bir bobda XX asrning 20 yillaridan hozirgi davrlargacha oid materiallar jamlangan va tahlil etilgan.

Tadqiqotda quyidagi vazifalar qo'yilgan.

1. Samarqandda professional musiqa-ijrochilik jamoalarining shakllanishi va rivojlanishi yo'llarini tadqiq etish (H.Olimjon nomli viloyat drama teatri, opera va balet-teatri).

2. Musiqa o'quv yurtlarining faoliyatini tadqiq etish va umumlashtirish, Samarqandda musiqaviy ta'limni yo'lga qo'yishdagi eng xarakterli jihatlarni aniqlash (san'at bilim yurti, S. Ayniy nomidagi Samarqand davlat pedagogika institutining musiqa fakulteti kafedralari).

3. Musiqaviy dramatik spektakllarga mahalliy mualliflar yozgan musiqalarini tadqiq etish: tadqiq etilayotgan davrga doir nota materiallarini o'rganish va tahlil etish.

4. O'zbekistonning boshqa shaharlari uchun ham umumiy bo'lgan belgilarni hamda Samarqand musiqaviy-ijtimoiy turmushining ayrim xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Samarqandning musiqaviy madaniyati to'g'risidagi ayrim tarqoq ma'lumotlarni birinchi marotaba tartiblashtirishga, uning shakllanishining bir butun manzarasini yaratishga, bu sohada davlat, kasaba uyushmalari va jamoat tashkilotlarining faoliyatlarini o'rganishga harakat qilinganligidadir. Shuningdek teatrlar repertuari, konsert dasturlari, tomosholar xarakteri, mahalliy kompozitorlar va artistlar faoliyati, teatrlar konsertlarga tomoshabinlarning kelishlari va boshqa ayrim masalalar ham birinchi marta ko'tarilmoqda.

Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda, muallif asosiy e'tiborni Samarqand shahrining musiqaviy madaniyati masalalariga qaratdi. Shu bilan birga, bu soha rivojlanishning real-ijtimoiy sharoitlarini to'laroq aks ettirish maqsadida Kattaqo'rg'on va boshqa qishloq tumanlari musiqaviy hayotining ayrim jihatlariga

ham e'tibor qaratildi.

Mazkur tadqiqot arxiv materiallari, viloyat xalq ijodiyoti uyi hujjatlari, gazeta va jurnal maqolalari, nota materiallari, O'zbekiston va Tojikistonning keksa musiqa namoyandalari- M. Ashrafiy, X. Narziqulov, Sh. Bobokalonov, N. Po'lodov, Sh. Akramov, Z. Shohidiy, K.I srofilov va boshqalar bilan bo'lgan og'zaki suhbatlar, muloqotlar asosida tayyorlanib taqdim etilmoqda.

2. Bob: Milliy musiqamizda Samarqand bastakorlik uslubining shakllanishi.

2.1. Samarqandda Kompozitorlik va havaskorlik san'atining rivojlanishi.

XX asr boshlaridagi ijtimoiy-tarixiy vaziyat professional va havaskorlik san'atlarning chuqur o'zaro ta'sirida bo'lishini taqozo etardi. A.V.Lunacharskiy ta'kidlaganidek, "Badiiy ma'rifat ikki o'zaro bog'liq, biroq bir-biridan farqlanuvchi tomonlarga ega bo'ladi." Vazifalardan biri san'at bilan keng tanishtirish bo'lsa, ikkinchisi-omma ko'nglining badiiy ifodalovchilari bo'luvchi birikmalar va jamoalarni yuzaga chiqarishdir.

Bu davrda sinfiy yondoshuv asosida bo'lsada, o'tmish madaniy qadriyatlarining ba'zi tomonlarini o'rganish hamda yangi badiiy madaniyatni yaratish vazifalarini bajarish, asosiy vazifa hisoblanardi. Butun mamlakatda badiiy ma'rifatning kuyi bo'g'inlari sifatida shahar va qishloq klub muassasalari tashkil etishga kirishildi. 20 yillarda mahalliy ahamiyatga ega klublar tashkil etildi. Klublarda badiiy havaskorlik to'garaklari ko'payib bordi.

Musiqa san'ati sohasida turli shaharlarda tashkil etiluvchi tantanali teatrlashtirilgan bayramlar keng o'rin egallay boshladi. Ularda professional jamoalar ham, havaskorlar ham faol qatnashadilar. 1924 yil 6-7 martda "Sharq kechasi" konsert tomoshosi tashkil etildi, unda she'rlar, xalq ashulalari, shashmaqomdan parchalar ijro etildi. Ushbu konsert tomoshosi S. Ayniy, A. Badriy, Yu. Rajabiy, Hoji Abdulaziz Rasulov va boshqa adabiyot va san'atning yirik namoyondalari tomonidan tayyorlangan edi.

Shu yilning 25-oktyabrida Samarqand O'zbekistonning poytaxti deb e'lon qilinishi munosabati bilan "Qari navo" deb nomlangan o'ziga xos bayram tomoshosi uyushtirilib, unda milliy merosimizning ayrim janrlari ijro etildi. Ushbu tomoshalar S.Ayniy, L.Saydullina, A.Badriy tomonidan yaratilib, ularda Hoji Abdulaziz Rasulov, Yu. Rajabiy, I. Ikromov, G. Axmedjonova, Siroj Yusupov va boshqalar faol ishtirok ettilar.

O'zbekiston musiqa madaniyati yilnomasida 20-yillar bir muncha sermahsul hisoblanadi. Barcha shaharlarda, shu jumladan Samarqandda ham havaskorlik studiyalari tashkil etildi. O'quvchilar va texnikum talabalari uchun va shuningdek turli mahallalarda tashkil etilgan ko'p sonli badiiy havaskorlik to'garaklari katta ahamiyat kasb etib bordi. Ular faoliyatining kuchayishi, asosan 20 yillarning ikkinchi yarmida kuzatiladi. To'garakning faoliyati ko'p qirrali edi: Ularda turli

spektakllar o'rganilardi va qo'yilardi, konsertlar tashkil etilardi, bayramga tayyorgarlik ko'rilardi, sharqning buyuk shoirlari she'rlardan o'qilardi, milliy asboblarda ijro etishga o'rgatilardi.

20 yillarda milliy yoshlar vakillari faol qatnashgan bir qator havaskorlik to'g'arklarini ko'rsatib o'tish mumkin. Jumladan, "Yosh kuch" to'garagi maktabdek tashkil etilgan edi. To'garakka mashhur artist H.Narziqulov rahbarlik qilgan. Ushbu truppa konsertlar bergan, uncha katta bo'lmagan bir sahnali va ikki sahnali spektakllar qo'ygan. Spektakllarning sobiq ishtirokchilarining guvohlik berishicha, ular ancha keng auditoriyaga (tomoshabinlarga) ega bo'lishgan. "Kamol xo'ja", "Maddohi" mahallalarida, "Hurriyat uyi"-dagi havaskorlik to'garaklari ham mashhur edilar.

"Ko'k ko'ylak" havaskorlik to'garagining ishtirokchisi, keyinchalik taniqli jurnalist bo'lgan Qamariddin Shamsiyevning xotirlashicha, 20 yillar ansambllarining repertuari, asosan, "Qashqarcha", "Ajam", "Qari navo", "Munojot" (uch qism), "Saraxbori dugoh", "Uffor", hazil laparlar kabi mumtoz o'zbek kuylaridan iborat bo'lgan.

Keyinchalik asta-sekinlik bilan barcha umuta'lim maktablarida badiiy havaskorlik to'garaklari paydo bo'ladi.

XX asrning 20 yillari boshlarida Samarqand madaniy hayotining markazi Registon ko'chasi-rastai nav (yangi kvartal) hisoblanib, u barcha tomonidan klublar vazifasi bajaruvchi savdo qatorlari, choyxonalar bilan o'rab olingan edi.

Bu yerda taniqli ashulachilar yoki havaskorlik jamoalarining yosh ishtirokchilarining har bir chiqishlari bayramga aylanib ketardi.

Musiqiy havaskorlik shakllanishi jarayonini o'rganish shuni ko'rsatdiki, uning Samarqanddagi ilk qadamlariyoq ko'p asrlik ijtimoiy maishiy an'analari bilan mustahkam bog'langan edi. Bu haqda badiiy havaskorlik repertuarlariga maqomlardan parchalar kiritilgani, qatnashchilarning musiqiy merosni mashhur bilimdonlari-xalq professional qo'shiqchilarining an'anaviy og'zaki ijodiga o'rgatib borilishi kabilar guvohlik beradi.

Havaskorlik ijrochilik jamoalarida tanbur, dutor, doira, g'ijjak, nay va boshqa musiqa asboblardan iborat tartibdagi ansambllar asosiy o'rin egallab boradilar.

O'zbekcha to'garaklar ashulachilikning an'anaviy milliy usullaridan keng foydalanish yo'lidan bordilar.

O'qish va ijrochilik xarakteri an'anaviy yakkaxonlik (monodiy) musiqaviy san'atga munosabat bo'yicha vorisiylikni, shuningdek o'zbek yakkaxonligi xarakterida ayrim yangi badiiy namunalarning yaratilishini toqozo etardi. Shu tarzda, milliy havaskorlik to'garaklarida ilk qadamlaridan monodiya (yakkaxonlik) o'zining yangicha amaliyotiga ega bo'ladi va jadal rivojlanishda davom etadi.

Yigirmanchi yillar oxiri-o'ttizinchi yillar boshlarida ayrim havaskorlik jamoalari professional turdagi yirik ijodiy birlashmalarga aylantirildi. 30-yillarda "Tomsk" klubida xalq musiqasi ansambli tuziladi. Uning ishtirokchilari: A.Kamolov (Tojikiston), N.Hasanov (O'zbekiston), mashhur tanburchi va doirachi I.Sultonovlar keyinchalik taniqli kompozitor-musiqachilar bo'lib yetishdilar. bu

davrda klubning rahbari xalq musiqachisi, talantli nay ijrochisi A.Ismoilov bo'lgan.

O'ttizinchi yillar boshida yoshlar havaskorlik jamoalari bilan bir qatorda pedagoglardan iborat ayrim to'garaklar ham tuziladi. Masalan, Samarqanddagi o'qituvchilar uyida texnikumlar va umumta'lim maktablarning musiqaviy iste'dodli pedagoglari kuchi bilan havaskorlik ansambli tuzilgan. Unga musiqaviy ijtimoiy turmushdagi yangi shakllarning progressiv belgilarini ko'ra olgan mashhur ashulachi Hoji Abdulaziz Rasulov rahbarlik qiladi. Uning tashabbuskorligi badiiy havaskorlik jamoalarida xalq professional ijrochiligidagi ajoyib an'analarni saqlab qolishga imkon berdi.

Ammo o'ttizinchi yillarda Samarqand musiqaviy havaskorligida ko'plab hal etilmagan muammolar bor edi.

Havaskorlik jamoalarini yangi musiqaviy madaniyat shakllanishining umumiy yo'nalishiga olib kirish, ko'p ovoqli xor ashulachiligini, ancha yengil musiqa janrlarini o'zlashtirish zarur edi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonning poytaxti Toshkentdan keyingi o'rinda Samarqand ham madaniy markazlardan biriga aylandi. Bu yerga ko'plab teatrlar, o'quv yurtlari, konsert tashkilotlarining ko'chirib keltirilishi musiqaviy-ijtimoiy hayotning jadallashuviga katta yordam berdi.

Og'ir urush qiyinchiliklariga qaramasdan san'at va adabiyot ham e'tiborda bo'ldi. Jumladan 1942 yil iyunda Frunzeda (hozirda Bishkek), 1944 yil fevral-martda Toshkentda O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari musiqa dekadalarini (o'n kunliklari) o'tkazildi.

Havaskorlikka ham jiddiy e'tibor qaratildi. 1944 yil mayda Toshkentda oliy o'quv yurtlari va texnikumlar badiiy havaskorlarning respublika ko'rigi tashkil etildi.

Samarqand shahar rahbariyati xor jamoalarining, shu jumladan o'zbek yoshlarining vokal to'garaklari ishiga katta e'tibor qaratdi. 1945 yil fevralida havaskorlik xor jamoalarining umushahar ko'rigi o'tkazilib, unda yutuqlar va mavjud kamchiliklar aniqlanib olindi.

Tanlov hay'ati qarori bilan Toshkentga respublika ko'rigiga Samarqanddagi "Красный двигатель" zavodining xor jamoasi hamda temiryo'l deposining o'zbek ansambli tavsiya etildi. Ularning ayrim ishtirokchilari mukofotli o'rinlarga sazavor bo'ldilar.

1945 yilda mehnat zahiralarini maktablari havaskorlarining respublika ko'rigida Ya.I.Miloviskiy rahbarligidagi 8-raqamli hunar bilim yurtining xor jamoasi muvoffaqiyatli ishtirok etdi.

Urushning oxirlari va urushdan keyingi dastlabki yillarda Samarqand shahri rahbariyatining badiiy havaskorlikka e'tibori yanada oshdi. Samarqand shahri va Samarqand viloyatining turli tumanlarida havaskorlik jamoalarining ishida jiddiy jonlanish boshlandi. Masalan, 1945 yilning sentyabrida Blung'ur tumanida badiiy havaskorlarning birinchi olimpiadasi o'tkazilib, unda ishchilar, xizmatchilar, ziyolilar faol ishtirok etdilar. Olimpiadaning keng qamrovli dasturiga dramatik ko'rsatuvlar, badiiy o'qish, milliy raqslar kiritilgan edi. Vokalchilar havaskorligi

repertuariga (shakar zavodi xodimi Semenova va b) rus xalq qo'shiqlari kiritilgan edi. Shu tariqa, dastur umuman olganda, o'zbek ashulachilik-o'yinchilik folklori hamda rus qo'shiqlaridan tuzilgan bo'lib, baynalminal xarakter kasb etardi.

1946 yil mayidagi ko'rikda Samarqand shahar Bog'ishamol tumanidagi o'nta jamoalar qatnashdi. Unda 8-mart nomidagi tikuvchilik fabrikasi xor jamoasi (rahbari Milovskiy) va "Красный двигател" zavodi xori (rahbari Abibullayev) alohida muvoffaqiyatga erishdilar. Pedagogika instituti jamoasi ham rang-barang milliy repertuar bilan chiqish qildi. (rahbar Sh.Akramov)

Tumanlarning orqasidan shu yilning 26 mayidan 28 maygacha shahar ko'rigi o'tkazilib, unda 300 dan ortiq kishini birlashtirgan 45 havaskorlik to'garaklari ishtirok etdi. Tanlovda eng yaxshi ijrochilar aniqlandi, bir qator kamchiliklar borligi ko'rsatildi, shuningdek, joylarda havaskorlik jamoalarining ishidagi ayrim cheklanishlar, uzilishlar borligi aytili. Havaskorlik to'garaklarining ommaviy chiqishlari muammosini hal etish masalasi qo'yildi. O'ttizinchi yillardagi klublar, choyxonalar faoliyati bilan bo'lgan an'analarni yangi darajada rivojlantirish haqida gapirildi.

Havaskorlar tanlovlari 1946 yil 9-10 iyunda o'tkazilgan viloyat ko'rigi bilan yakunlanadi. Shunday qilib, keyingi davrlarda yana ham rivojlanib borgan, badiiy havaskorlik ko'riklarini o'tkazishning aniq va uzviy tizimi shakllandi.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda havaskorlik ishlaridagi jiddiy yutuqlarga qaramasdan, ishni to'g'ri yo'lga qo'yishdagi qiyinchiliklar, badiiy kengashlar tomonidan yetarlicha uslubiy yordam ko'rsatilmagligi kabilar bilan bog'liq bir qator kamchiliklar mavjud edi. Bu viloyat gazetasidagi maqolada: "To'garaklarga oila a'zolari, ishchilar, xizmatchilar jalb etilmagan. Yaxshi to'garaklar deyarli faqat ayollardan iborat. Rus va o'zbek torli orkestrlari tashkil etilmagan. Pilla zavodi, oyoq kiyimlari fabrikasidagi xor to'garaklari, moliya texnikumdagi havaskorlik to'garagi, ularga zarur yordam ko'rsatilmaganligi sababli tarqab ketdi"-deb yozilgan.

Qirqinchi yillarning ikkinchi yarmida Samarqand viloyatining ayrim shaharlarida ham milliy havaskorlik jamoalari tuzilmagan, to'garaklarga rahbarlik yaxshi yo'lga qo'yilmagan edi, bular madaniy-oqartuv texnikumi, madaniyat instituti yo'qligi, musiqa bilim yurtining kech qayta tiklangani (o'quvchilarning birinchi bitirishi 1949 yilda bo'ldi) bilan izohlanardi.

Elliginchi yillar boshlarida Samarqandning korxonalari, oliy o'quv yurtlari va texnikumlarida oltmishga yaqin havaskorlik to'garaklari bor edi. Biroq ularning barchasi ham o'z faoliyatlarini takomillashtirish imkoniga ega emas edilar.

Repertuar muammosi eng dolzarb masalalardan edi. To'garaklar asosan ashulachilik va o'yinchilik janrlari bilan cheklanib qolishgan. Opera sahnalari ijrochiligiga faqat ayrim misollarnigina keltirish mumkin xolos, jumladan № 2, 3, 4, 7 bolalar uyi va 45 maktabning birlashgan xori (rahbari I.S.Levkasi) o'z repertuariga N.A.Rimskiy-Korsakovning "Qor qiz" operasidan "Qishni kuzatish" sahnasini kiritgan edi.

Elliginchi yillarda ko'pchilik shaharlarda ijodiy kechalar, uchrashuvlar, bayram tadbirlarida ilmiy-ommabop leksiylar bilan musiqaviy havaskorlik

konsertlarini birga qo'shib o'tkazish amaliyoti keng qo'llanila boshlandi. Samarqand shahrida ham bunday tadbirlarga talaygina misollar keltirish mumkin: 1950 yil 4 noyabrda savdo institutida yoshlar kechasi o'tkazildi. To'plaganlarga "Germaniya demokratik respublikasi" mavzusida ma'ruza o'qildi, keyin esa badiiy havaskorlik konserti berildi. 11 dekabrda Samarqand tibbiyot instituti ilmiy xodimlari va talablarining kechasi o'zbek dramatik teatrining binosida o'tkazilib, beshinchi kurs talabasi Balandining "Jahon yoshlari tinchlik uchun kurashda" nomli ma'ruzasidan so'ng badiiy havaskorlarning katta konserti bo'ldi. A.Novikovning "Jahon demokratik yoshlari Gimni" va M.Burxonovning "O'zbekiston madhiyasi" ijro etildi. Shu xildagi kechalar viloyat madaniyat uyida ham bir necha marotaba o'tkazildi.

Samarqandda viloyat kasaba uyushmalari kengashi, yoshlar qo'mitalari, viloyat madaniyat boshqarmasi, madaniy oqartuv bo'limi va san'at ishlari bo'yicha viloyat bo'limi tomonidan qo'shiq bayrami o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishi bo'yicha viloyat va shahar komissiyalari tuzildi. Bayram oldidan havaskorlik jamoalarining ommaviy chiqishlari uyushtirildi. Musiqa bilim yurti ko'pgina jamoalarga otaliq yordami ko'rsatdi. Ayrim jamoalar juda ko'p sonli ishtirokchilarni to'plashga erishdi. Kattaqo'rg'on jamlanma xorida orkestr jo'rligida ikki ming kishi chiqish qildi. Qo'shiq bayramiga tayyorgarlik jarayonida taniqli musiqachilarning qiziqarli suhbat va uchrashuvlari musiqa ixlosmandlari hamda havaskor artistlarda musiqa madaniyatiga katta qiziqish shakllanishiga olib keldi.

Elliginchi yillarning birinchi yarmida o'tkazilgan qo'shiq bayramlarining ma'lum bir kamchiliklari, bu o'zbek folkloriga, o'zbek kompozitorlarining asarlariga yetarlicha e'tibor berilmaganligida edi.

Elliginchi yillarning ikkinchi yarmida o'zbek milliy repertuariga qiziqish sezilarli darajada o'sdi. 1955-1956 yillardagi musiqaviy havaskorlik ko'riklarida kooperativ texnikumning havaskorlik jamoasi "Gulbahor", "Jonon" kabi xalq kuylarini, "Salom senga Xorazmdan", "O'zbek qizining ovozi" kabi zamonaviy qo'shiqlarini ijro etdi. Havaskor artistlarning konsertlariga o'zbek kompozitorlarining muiqali dramalaridan parchalar, jumladan M.Liviyevning "Oltin qo'l" musiqali dramasidan duetlar kiritila boshlandi.

Qishloq havaskorlariga e'tibor kuchaya boshladi. Toshkentda 1955 yil sentyabr oxirida o'tkazilgan qishloq badiiy jamoalari ko'rigida Samarqand viloyatidan 70 kishi qatnashdi.

Xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atlarining o'zaro ta'siri jarayoni faollashdi. Buning yorqin misoli Samarqand viloyatining Urgut tumanida tuzilgan "Beshqarsak" xalq vokal-o'yin ansambli hisoblanadi. U xalq og'zaki ijodi havaskorligidan boshlab mashhur ansambllardan biriga aylandi. Jumladan, 1953 yil avgustida respublika ko'rigiga nomzodlarning katta konsertida "Beshqarsak" syuitasi eng yaxshi chiqish deb tan olindi. Ayrim jamoalar va ayrim ijrochilar ham tinglovchilar e'tiboriga sazavor bo'lishdi, jumladan, № 15 umumta'lim maktabining o'qituvchisi N.Mulloqandov arab, livan va afg'on qo'shiqlar ijrochisi sifatida, "Samarqand haqiqati" gazetasining mas'ul kotibi A.Jo'rayev zamonaviy

qo'shiqlari ijrochisi sifatida xalq orasida keng tanildi. Samarqand viloyatining ko'pgina tumanlarida (Narpay, Bulung'ur, Nurota va b) elliginchi yillarda dostonchi baxshlarning ijrochilik mahorati rivojlanib bordi. Bulung'urdan Fozil Yo'ldoshev, Narpaydan Yodgor baxshi Is'hoqovlar umumxalq hurmatiga erishdilar.

Samarqand viloyatining qishloq joylaridagi ko'pchilik konsertlarning xususiyati xalq og'zaki ijodi va havaskorlik yo'nalishdagi musiqaviy chiqishlarning navbatma-navbat kelishi hisoblanadi. Bu ularga o'ziga xos xarakter bag'ishlab, havaskor artistlar tomonidan folklor boyliklarining, milliy-badiiy an'analarning yaxshiroq o'zlashtirilishga yordam beradi.

Ishlarni yanada yaxshilash maqsadida 1965 yilda viloyat madaniyat boshqarmasi tomonidan musiqa bilim yurti qoshida badiiy havaskorlik rahbarlari uchun olti oylik o'quv kurslari ochildi. Mashg'ulotlarga viloyatning deyarli barcha tumanlaridan kolxozchilar kelishdi. Tinglovchilar uchun bilim yurti pedagoglari kuchi bilan klub ishi, milliy cholg'u asboblari ansambllariga rahbarlik qilish bo'yicha ma'ruzalar tashkil etildi. Musiqaga qiziquvchi havasmandlar bu kurslarda sahna va xor san'ati, klub ishi asoslarini egalladilar, nota bo'yicha kuylash va cholishni o'rgandilar.

Bu tadbirlar professional san'at vakillari tomonidan havaskorlikka e'tiborning kuchayishi bilan bog'liq edi.

Bu yillarda xalq ijodiyoti uyi ham o'z rahbarlik ishini faollashtirdi. Masalan, 1956 yilda uning qoshida yigirma uchta madaniyat uylari direktorlari, to'qqizta kolxoz klubi mudirlari qayta tayyorgarlikdan o'tdilar.

Qishloq klublari uchun mudirlar tayyorlashning yaxshilanishi, shubhasiz ravishda, qishloq havaskorligi rivojlanishda muhim rol qynadi. Yil sayin bitiruvchilar soni o'sib bordi. 1959 yilda bu o'qishlarni 19 kishi tugallab, ular ilgari malakali badiiy havaskorlik rahbarlariga ega bo'lmagan Paxtakor, Qoradaryo, Narimonova va boshqa tumanlarga ishga yuboriladilar. Umuman olganda esa elliginchi yillarda havaskorlik san'atining yanada yuksalishi uchun asos yaratildi, shular tufayli u o'z rivojining keyingi bosqichlariga ko'tarilish imkoniga ega bo'ldi.

60-70 yillarda o'zbek musiqaviy madaniyati tarixida yangi teatr va konsert jamoalarining vujudga kelishi muhim bosqichlar bo'ldi, O'zbekiston kompozitorlarining ijodi yuksaldi, eng yuksak badiiy asarlar faqat o'zimizdagina emas, balki chet ellarda ham tan olindi. Bular barchasi tabiiy rivishda musiqaviy-badiiy havaskorlikning rivojlanishiga ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Nafaqat professional, balki havaskorlik jamoalarining ham rahbarligi yaxshilanib borishda 1968 yilda Sadridin Ayniy nomli Samarqand davlat pedagogika institutida musiqa bo'limining ochilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Havaskor mualliflarning ijodi san'atning barcha turlarida ham sezilarli darajada faollashdi. Bastakorlar, rassomlar, shoirlar soni o'sib bordi. "Moskva" qishloq xo'jalik jamoasi kolxozchisi R.Navruzovning she'rlari mashhur bo'lib, qo'lyozma to'plam holidagi keng tarqaldi. Ular ko'pgina havaskor artistlarning chiqishlariga kiritilgan edi.

1966 yilda o'zbek adabiy nashriyoti Samarqand universitetining sobiq talabasi, urushning oxirgi kunlarida qahramonlarcha halok bo'lgan Burhon Tursunovning vatanparvarlik turkumidagi she'riy asarlarini nashrdan chiqardi.

60-70 yillarda musiqaviy havaskorlikni rivojlanishini avvalgi davrlarga qaraganda ancha yetuk davr deb hisoblash mumkin, bu jamoalar sonining o'sishida, ular repertuarining rang-barang bo'lib borishida, ijrochilik mahoratining yuksalishida ifodalanadi.

Oltmishinchi yillarda Zobitlar uyida shahar va viloyat badiiy havaskorlik jamoalarining yillik ijodiy hisobotlari o'tkazilib boriladi. Eng yaxshi jamoalar Toshkentda respublika festivallarida doimiy chiqishlar qilib mukofotli o'rinlarni egalladilar, faxriy yorliqlar bilan taqdirlanadilar. № 1 madaniyat uyi xor jamoasi tuzgan "Beshqarsak" vokal-o'yin syuitasi respublikaning boshqa shaharlarida ham keng taniladi.

Havaskorlik jamoalari ishida yangi to'lqin, ularning rahbarligiga tajribali professional musiqachilarning kelishlari bilan boshlanadi. Masalan, yuqorida aytib o'tilgan "Beshqarsak" jamoasi, bu yillarda, Samarqandda tajribali xormeyster sifatida yaxshi ma'lum bo'lgan, Samarqand musiqa bilim yurtining birinchi pedagoglaridan hisoblanuvchi S.S.Kononchuk rahbarligida ish olib boradi.

1963 yilda S.S.Kononchuk tomonidan tashkil etilgan xor, olti yil o'tgach, 1969 yilda ittifoq madaniyat vazirligining diplom bilan taqdirlab xalq xori faxriy unvonga ega bo'ldi. S.S.Kononchukning tashabbuskorligini yosh B.Komilov ham qabul qildi, u rahbarligida № 1 madaniyat uyining xor jamoasiga uning repertuaridagi qardosh xalqlar va chet el mualliflarining asarlari ijrosi katta shuhrat keltirdi.

Yuksak ijrochilik mahorati uchun bu xor respublika ko'rigida birinchi o'rinni egallab, Tallinda o'tkazilgan umumittifoq xor jamoalari ko'rigida qatnashib 1-darajali diplom bilan taqdirlandi.

Oltmishinchi yillarda havaskor musiqachilar kuchi bilan "Paxta bayrami" vokal-simfonik syuitasi yaratildi. № 2 madaniyat uyi jamoasi repertuariga kiritilgan bu chiqish jamoa qatnashchilariga nafaqat Samarqandda, balki Toshkentda ham katta muvaffaqiyat keltirdi.

Oltmishinchi yillarda teatr havaskorligining darajasi sezilarli darajada o'sib bordi. Samarqand viloyat shahar va kolxozlarida xalq teatrlari ochiladi. Ularning repertuariga mahalliy mualliflar pe'salari kiritilib, ularning musiqasini ham mahalliy bastakorlar kuchi bilan amalga oshirildi. O'ttizinchi yillardagi maktab havaskorligi an'analari-o'qituvchilar uchun tushunarli spektakllar qo'yilishi yangi darajada qaytadan tiklanadi.

1971 yildan havaskorlik jamoalari o'rtasida xalq jamoalari nomini olish uchun ijodiy musobaqa kuchaydi. Keyingi yillarda Kattaqo'rg'on madaniyat uyining urush va mehnat faxriylari xori (1978), Narpay tumanidagi № 9 madaniyat uyi qoshidagi "Zilola" ansambli (1981), Oqdaryo tumani madaniyat uyi qoshidagi "Tarona" ansambli xalq ansambli unvoniga erishdilar.

Bu jamoalarning har biri mazmunli, qiziqarli repertuarlar ishlab chiqdilar. Milliy ansambllar dasturida o'zbek kompozitorlaridan Sh.Ramazonovning

“O‘zbekiston”, S.Yudakovning “Olamda gullar yashar” asarlari, “Paxta” raqs-syuitasi, o‘zbek mumtoz qo‘shiqlari “Gulizorim”, “Dugoh”, “Ushshoq”, o‘zbek xalq qo‘shig‘i “Bir ishva bilan”, “O‘ynasin” yallasi va boshqalar o‘rin olgan edi.

Shahar va viloyat havaskorligining rivojidadagi keyingi muvoffaqiyatlarga viloyat xalq ijodiyoti uyi ishining yaxshilanish va viloyat badiiy havaskorlik uyining ochilishi katta imkoniyat yaratdi. Professional va havaskorlik san’atlarining aloqalari mustahkamlandi. Xalq ijodiyoti uyining 1970 yilgi hisobotida ta’kidlanishicha opera va balet teatri ijodiy xodimlaridan 17 kishi havaskorlik jamoalariga rahbarlik qilishni o‘z zimmlariga oldilar va ishda birmuncha yuqori sifatlarga erishdilar. Bir qancha artistlar ko‘riklar, tanlovlarning maslahatchilari bo‘ldilar. Shu xildagi aloqalar badiiy havaskorlik uyi bilan Hamid Olimjon nomli viloyat teatri badiiy jamoasi o‘rtasida, Kattaqo‘rg‘on o‘zbek drama teatri, rassomlar, yozuvchilar, jurnalistlar uyushmalarining viloyat bo‘limlari, musiqaviy o‘quv yurtlari bilan o‘rnatilgan edi.¹

Viloyat badiiy havaskorlik uyi qoshida badiiy havaskorlik jamoalari rahbarlariga uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish uchun doimiy harakatdagi ijodiy laboratoriya tashkil etildi. Samarqand viloyat kasaba uyushmalari Kengashining 1970 yil 24 sentyabrdagi qarori bilan 17 kishidan iborat badiiy kengash tasdiqlanib, uning tarkibiga taniqli madaniyat xodimlari, teatrlar, tahririyatlar, yozuvchilar uyushmasi bo‘limi, musiqa bilim yurti vakillari kirdilar.

Viloyat badiiy ijodkorlik uyining vazifalaridan biri xalq an’analari bilan jonli aloqani mustahkamlash bo‘ldi. Yetmishinchi yillarda bahor bayrami-”Navro‘z bayrami”-ga g‘oyat katta e’tibor berildi. 1974 yildagi “Navro‘z bayrami” g‘oyatda qiziqarli o‘tkazildi.

Bayramda 8 mart nomli shoyi to‘qish fabrikasi, xotin-qizlar pedagogika bilim yurti, jismoniy madaniyat texnikumi, I.V.Michurin nomli texnikum, maktabgacha tarbiya bilim yurti, Sam.DU, SamQXI, SamDPI jamoalari, temiryo‘lchilar klubining “Guldasta” ansambli, lokomotiv deposi va “O‘roq va bolg‘a” zavodining orkestri, Y.Oxunboboyev nomidagi teri-ko‘n zavodining vokal jamoalari faol ishtirok etdilar. Bolalar havaskorligi muammolari ham e’tibordan chetda qolmadi. Samarqand viloyatida 1974 yil 1-7 martlarda bolalar va yoshlar uchun musiqa haftaligi o‘tkaziladi.

Bular professional va havaskorlik musiqaviy ijodiyotining haqiqiy hamkorlig edi. Musiqali spektakllar, ma’ruzali konsertlar havaskorlik ustalarining tanlovlariga ulanib ketardi.

1979 yilda havaskorlik badiiy jamoalarining ishini yanada rivojlantirish maqsadida viloyat xalq ijodiyoti uylari xalq ijodiyoti va madaniy oqartuv ishlarining viloyat ilmiy-uslubiy markaziga aylantirildi. Uning vazifasi etib viloyatdagi barcha klub muassasalari va badiiy havaskorlik jamoalariga uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish belgilangan edi.

O‘zbekiston madaniyat vazirligi Hay’atining qarori (№ 8,7 fevral 1970 y.), viloyat ilmiy-uslubiy markazining viloyat madaniyat boshqarmasi bilan birgalikdagi 1970 yil 17 maydagi qarorlari asosida respublika xor jamoalari tanlovining o‘tkazilishi Samarqandda musiqaviy havaskorlik rivojlanishining

asosiy tendensiyalarini aniqlashga katta yordam berdi. Tanlovning asosiy vazifalari etib havaskor xor jamoalariga turli kasb vakillarini keng jalb etish, qishloq, tuman va shahar madaniyat uylari va klublarida yangi havaskor xor jamoalari tuzish, xor jamoalarida g'oyaviy tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, repertuarlarning badiiy darajasini va ishtirokchilarning ijrochilik mahoratini oshirish, repertuarlarni eng yaxshi klassik va zamonaviy asarlar bilan to'ldirish kabilar belgilanadi. Viloyat tanlovida 300 kishidan iborat 15 ta xor jamoalari ishtirok etdilar.

Birinchi o'rinni Samarqand shahar Bog'ishamol tumanidagi № 1 madaniyat uyining xalq xori egalladi. ikkinchi o'rin Kattaqo'rg'on shahar 1 madaniyat uyining faxriylar xoriga berildi. Uchinchi o'ringa Samarqand tumanining "Bog'i-baland" xor jamoasi sazovor bo'ldi.

Havaskorlik, shu jumladan musiqaviy havaskorlik ishlarning yanada yuksalishga 1980 yil 28 mayda Toshkentda o'tkazilgan, madaniy-oqartuv sohasi kadrlarini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman katta ahamiyatga ega bo'ldi. Unda Samarqand viloyati ilmiy-uslubiy markazining katta ilmiy xodimi M.M.Smenko "Madaniy-oqartuv xodimlari kadrlarini tayyorlashni takomillashtirishda og'zaki va ishlab chiqarish amaliyoti" mavzusida ma'ruza bilan chiqish qildi. Markaziy madaniyat uylari direktorlarining seminarida boshqa masalalar qatorida xalq musiqa asboblari jamoasi bilan ishlash uslubining dolzarb masalalari ham ko'tarildi. (ma'ruzachi D.Nabiyev).

Viloyat ilmiy-uslubiy markazining ishidagi qimmatli jihatlar sifatida xalq an'analari rivojlantirish va ommalashtirish harakatlarini aytish mumkin. Markazda har oyda maqom ansambllari va baxshi-shoirlari ijodiy faoliyati masalalari qarab chiqildi, eng ommaviy musiqa asboblari-karnay va surnay ijrochilarini tayyorlash uchun har yili olti oylik kurslar tashkil etiladi.

Xalqning sevimli musiqa asboblari ijro etishga o'rgatilishi musiqa asboblarning ham, ijrochilik an'analarning ham saqlanishiga yordam berdi. Bu davrga kelib, sir emaski, ayrim xalq musiqa asboblari ommaviylikdan chiqib qolayotgan edi. Masalan, xalqimiz musiqasi uchun katta ahamiyatli bo'lgan tanbur tobora kamroq ishlatila boshlagan edi. Shu sababli yuqori toifali tanburchilarni tayyorlovchi musiqa o'quv yurtlarini kuchaytirish muhim va dolzarb vazifalardan etib belgilandi.

1979 yil 25 mayda O'zbekiston madaniyat vazirligining qarori bilan o'tkazilgan askiyabozlar va baxshi-shoirlar respublika tanlovi xalq og'zaki ijodi an'analari rivojlantirishda salmoqli tadbir bo'ldi.

Xalq baxshilarining dasturiga "Ko'rdim" (ijrochi Narpay tumanidan S.Xushvaqtov-1 o'rin), "Denjali" (ijrochi Xatirchi tumanidan Umarqul Po'lkan o'g'il-II-o'ri) kabi asarlar kiritilgan edi. Tanlovda ko'pchilik holatlar quvonarli edi, biroq achinarli tomonlar ham ko'rindi. Dostonchilik ashula-ijodlariga an'analari saqlanganligi tinglovchilar katta qiziqish bildirdilar, ammo konsertlarda do'mbiraning¹ yo'qligi ko'pchilikni nihoyatda ranjitgan edi. Ijrochilik an'analarning buzilishi baxshi shoirlar konsertlarining hissiy-badiiy kambag'allashuvida olib kelmasligi mumkin emas edi.

Yetmishinchi yillarning ikkinchi yarmi ashula va milliy ansambllarining

gullab-yashnash davri bo'lib, ular ko'plab ko'rik va tanlovlarda, jumladan, 1979 yil 5 iyundagi viloyat tanlovida o'z ijodlarini yanada kengroq namoyish etdilar. 14 jamoa 490 ishtirokchi tarkibida ham qadimiy ham zamonaviy ashula-raqs folkloridan iborat o'z dasturlarini taqdim etdilar.

Ma'lumki, O'rta Osiyoning boshqa respublikalaridan farqi o'laroq O'zbekistonda ashula-raqs madaniyati ancha keng rivojlangan edi, masalan Qirg'iziston va Turkmanistonda xalq turmushida raqs faqat ayrim marosimiy janrlardagina ijro etilgan xolos. Milliy merosning an'anaviy janrlarini yangicha talqinda ijro etishda viloyatimizning ko'plab ansambllari: Pasdarg'om tumanidagi "Sayqal" (1-o'rin, rahbari U.Bo'tayev), Narpay tumanidagi "Hosil" (2-o'rin, badiiy rahbari D.Abdurasulov), Pasdarg'om tumanidagi "Navro'z" (ikkinchi o'rin, badiiy rahbari A.Allamurodov), Kattaqo'rg'on tumanidagi "Zarafshon" (3-o'rin, badiiy rahbari Sh.Sharipova), Bulung'ur tumanidagi "Yoshlik" (3-o'rin badiiy rahbari B.Hakimov), Ishtixon tumanidagi "Rohat" (3-o'rin, badiiy rahbari E.Mardiyev) ansambllari katta mahorat ko'rsatdilar.

Ashula va raqs milliy ansambllarining repertuariga ko'plab qadimiy asarlar kiritilgan edi. Jumladan, qadimdan Samarqandda bo'lgan, biroq uzoq vaqtlar havaskorlikdan yo'qolib ketgan yetmishinchi yillarda qayta tiklangan "Qora to'rg'ay" ifodali raqs-ashulasi juda namunali edi. "Zarafshon" ansambli qizlar raqs guruhi ijrosidagi "Raqqosasidan" deb nomlanuvchi qadimiy xalq raqsi ham chuqur lirikasi, ijrochilining nozikligi bilan o'ziga jalb etardi.

Havaskor ijrochilarning repertuarida O'zbekistonning yetakchi kompozitorlarining ashulalari ham bor edi. Ular tomonidan qardosh xalqlar (tojik, ozarbayjon, turkman, qoraqalpoq) va shuningdek yaqin sharq-Afg'oniston, Eron va boshqa davlatlar xalqlarining ayrim ashulalari ham ijro etilardi.

Ansambllar musiqa asboblari barcha havaskorlik jamoalarida deyarli bir xil: doira, nay, chang, g'ijjak, rubob, akkordeondan iborat edi. Keyingi yillarda ular qatoriga, ba'zida klarnet ham qo'shildi.

Yetmishinchi yillarning oxiri-saksoninchi yillarning boshlarida milliy badiiy jamoalarning gastrol faoliyatlari kuchayib, buni madaniy o'zaro aloqalarning qimmatli jihati sifatida ta'kidlash zarur.

Boshqa xalqlarning musiqa san'ati bilan tanishuv professional musiqachilarning ham, havaskor musiqachilarning ham ijodiy o'sishga doimo yordam berib kelgan. "Oqtosh" duxovoy orkestr xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasida Moskvada, "Navro'z" xalq ansambli Moldaviyada bo'ldilar. "Beshqarsak" etnografik ansambli Toshkentda katta muvoffaqiyatlarga sazovar bo'ldi. Armanistonda "Sayqal" ansambli juda do'stona kutib olindi. "Rohat" ansambli 1977 yil iyulda Belarussiyada yettita konsert berdi, "Zarafshon" ansambli Leningradda, "Yoshlik" ansambli Kiyevda, "Guldasta" xalq (oilaviy) ansambli Selinogradida, "Красный двигател" zavodining "Krinisi" vokal ansambli Chernovisida konsertlar bilan chiqish qildilar.

Samarqandlik havaskorlik jamoalarning chet ellardagi ajoyib chiqishlarini alohida ta'kidlash zarur. Kattaqo'rg'on tumanidagi "Chaman" ansambli 1983 yilda Yaponiyada bo'ldilar Samarqand me'morchilik qurish institutining "Ulug'bek

yulduzlari” xalq ansambli 1983 yilda Bolgariya va Ruminiyada safarda bo’ldilar.

Samarqandliklarning sanoat, fan, madaniyat sohalaridagi muvoffaqiyatlarini namoyish etuvchi “Samarqand yerning saxovati” kuzgi ko’rgazmasi yildan yilga tobora qiziqarli o’tkazila boshlandi. Ko’rgazmaning ochilishi haqida karnay va surnaylarning an’anaviy ovozlari xabar berardi. San’at yutuqlari ko’rigida badiiy havaskorlik jamoalari munosib o’rin tutadi.

Ko’rgazmadagi konsertlar dasturida, qoida tariqasida an’anaviy o’zbek ashulalari, og’zaki professional musiqasi asarlari, zamonaviy mualliflar shu hisobdan, Samarqandlik bastakorlarning asarlari o’rin olardi. Musiqali dramalardan parchalar, kinofilmlardan musiqali ko’rinishlar, qardosh xalqlar ashulalari ham keng o’rin olgan. Jumladan 80 yillardagi ko’rgazmalarda havaskorlik jamoalari chiqishlarida A.Navoiy so’zi bilan “Gulizorim” ashulasi, “Sog’indingmu”, “Sozim bilan”, “Olamda gullar yashnar”, “Sizni so’roqlar”, “Ishim bordur, ushal ohuda” va boshqa ashulalar, “Ko’ngil taronasi”, “Bahor keldi”, “Sabo”, “Shahlo”, “Zebo” kabi raqslar jamoatchilik e’tiborida bo’lib keldi.

Turli anjumanlar, hosil bayramlari va boshqa tadbirlardan ham havaskorlik jamoalari faol ishtirok etib keldilar.

Jumhuriyatimiz 1991 yilda mustaqillikka erishib erkin nafas olishga muyassar bo’ldi va mustaqil O’zbekiston respublikasi bo’lib tarix sahifalariga kirdi. Xalqimiz orziqib kutgan damlar mustaqillikning e’lon qilinishni katta bayram tantanalar bilan kutib oldilar. Bu tantanalarni tashkil etishda, xalqimizning quvonchiga quvonch qo’shishda viloyat madaniyat muassasalarining ham hissasi katta bo’ldi. Umuman olganda jumhuriyatimizning mustaqillikka erishishi eng buyuk voqyealardan biri desa bo’ladi. Bu esa xalqimizning o’zligini anglashiga, tili va madaniyatini, milliy urf-odatlarini va orzu umedoarining ro’yobga chiqishda namoyon bo’lmoqda. Ayniqsa o’zbek tiliga davlat maqomi berilishi, ma’naviy madaniyatimizning rivojlanishga olib kelmoqda.

Samarqand viloyat madaniyat bo’limi o’z ish yo’nalishini viloyatdagi madaniy-ma’rifiy muassasalarga uslubiy va amaliy yordam berish, omma o’rtasida madaniy-ma’rifiy ishlarni hamda badiiy havaskorlik jamoalari ish tajribalarini o’rganish, ularni da’vatxona ishiga tadbiiq etish, ilmiy-tadqiqotlar o’tkazish, da’vatxona ishini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyanomalar tayyorlash, ko’ngilli dam olishni tashkil etish yuzasidan uslubiy yo’llanmalar bilan ta’minlab borish ishlariga qaratdi.

Masalan 1991 yilda Alisher Navoiyning 550 yilligiga bag’ishlab “Navoiyxonliklar”, “O’lmas siymo”, “Nazm mulkining sultoni”, “Ona Vatan fidoiylari”, “Navro’z xalq sayli” kabi tadbirlar xalq orasida o’tkazildi.

Mustaqil O’zbekiston xalqining madaniyat va san’atga bo’lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida Samarqandda madaniy-ma’rifiy muassasalari aholi o’rtasida siyosiy sohalar, ijtimoiy siyosiy axloq va estetik tadbirlarni amalga oshirdi. Xalq turmushiga yangicha urf-odat va an’analarni, marosimlarni tatbiiq etish, yoshlarni badiiy ijodkorlik ruhida tarbiyalash, ularga mehnatsevarlik, vatanparvarlik g’oyalarini singdirish yuzasidan har xil mavzularda kechalar, munozaralar, savol-javob kechalari o’tkazildi. Bu tadbirlar viloyatning barcha nohiyalarida bo’lib

o'tdi.

Yil davomida yoshlarni ko'niglli dam olishlarini mazmunli o'tkazishda "Quvnoqlar va zukkolar", "Iqbol", "Balli-qizlar" ko'rik-tanlovlari tashkil etildi.

Viloyat miqyosida "Navro'z bayrami" keng nishonlandi, unda polvonlar aholining dam olishiga salmoqli hissa qo'shdi.

Xalq teatrlari ham mustaqilligimizning birinchi yilidan boshlab o'z faoliyatlarini xalq ehtiyojini, estetik didini, ommaning ijodiy tashabbuskorligini ro'yobga chiqarish maqsadlarda to'laqonli davom etdilar. Bunda "Bumerang" xalq studiya teatri, Bulung'ur, Pastdarg'om, Payariq, Urgut xalq teatrlari, Loyish, Kattaqo'rg'on, "Buratino" xalq qo'g'irchoq teatrlari ham mustaqillik nashidalaridan bahramand bo'lib bir qancha yangi spektakllarni sahnalashtirdilar. Bular: "Ishtihon", "Navoiy bir kuni", "Istambul fojiasi", "Milisiya mayori", "Davlat bolalari", "Kamalak", "Kumush to'yi", "Zayas i petux", "Muxa-sokotuxa" va boshqalar.

Samarqand viloyatining shahar va nohiya madaniyat uylarida 16 ta ashula va raqs xalq ansambllari faoliyat ko'rsatmoqda: "Oq-oltin", "Zarafshon", "Yoshlik", "Rohat", "Tarona", "Beshqarsak", "Sayqal", "Navro'z", "Zilola", "Hosil", "Jomboy taronalari", "Chaman" va boshqalar shular jumlasiga kirdi. Bu jamoalar respublikamizning musiqa san'atini ommalashtirishda, targ'ibot-tashviqot ishlarida o'z xizmatlarini ayamay kelmoqdalar.

Etnografik-folklor dastalar jamoalari viloyatda madaniyat va san'atni yuqori pog'onada ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etayapti. Samarqand xalqining tarixi, madaniyati, san'ati, ijtimoiy turmushdagi bitmas-tuganmas manbalar borki, ularni o'rganish, ijodiy yondoshib sahnaga olib chiqish zarur. Ro'i zamin sayqali bo'lgan Samarqand yerlari Jizzax, Qashqadaryo, Buxoro, Tojikiston, Qozog'iston yerlari bilan tutash. Shu boisdan ham folklor-etnografik dastalari sahnada ijro etayotgan nomerlar rang-barang, mazmunli, takrorlanmas va baynalminaldir. Shu jamoalar ijrosida Qovun sayli, Beshik to'yi, Sumalak, Navro'z, Gilam to'qish, Tandir solish, Boychechak va boshqa chiqishlari avlod-ajdodlarimizning ming yillar davomida kashf etgan odatlarni ilmiy o'rganish, to'plash so'ngra ijodiy yondoshib ommaga yetkazish katta xayrli ishlardan biridir. Eng muhimi kelajak avlodlar bebaho xazinalarimizdan bahramand bo'lishlari kerak. Viloyat madaniyat bo'limi qoshida faoliyat ko'rsatayotgan "Chavki", "Qo'sh doira", "Chanqovuz", "Sedona", "Gulyor", "Saxoba", "Darg'am navolari", "Sumbula", "Dahbed gullari", "Yulduzga" badiiy jamoalar xalqimizga xizmat qilishda va yosh avlodni estetik yo'nalishda tarbiyalashda salmoqli hissa qo'shib kelmoqdalar.

Samarqand ko'pmillatli viloyat bo'lganligi sababli havaskorlik xor jamoalari bir necha o'n yilliklardan beri aholiga beminnat o'z xizmatlarini qilib kelmoqdalar. Yuqorida aytib o'tganimizdek viloyatda havaskorlik xori jamoalari bilan birgalikda ikkita xalq xori jamoasi ham bor.

Baxshi-shoirlar ijodiyoti ham yildan-yilga yuksalib bormoqda. Narpaylik Ziyodullo baxshi Ismoilov "Bobokalon Navoiy", "Qayta qurish" termalarini xalq orasida jo'shib aytgan bo'lsa, Xurram baxshi Eshmurodov "O'zbekim" she'ri bilan xalqimizni ulug'laydi. Mamay baxshi Ergashev "Aylama", Zarif baxshi Ashurov

“Zarafshon”, Diyor baxshi Yusupov “Cho’pon yigit va qiz”, “Keling, Navro’z sayliga” termalari bilan xalqimizning ming yillik an’alarini kuylay kelmoqdalar.

Mustaqillik sharafi bilan oilaviy havaskorlik dastalar soni va ularning dasturlari yildan-yilga sermazmun va qiziqarli bo’lib yuksalmoqda. Kattaqo’rg’onlik Hasan Boyxonovlar dastasi, Urgutlik Nabiyevar oilaviy dastasi, Oqtoshlik Norboyevlar oilaviy dastalari, Jomboylik Qodir Ruziqulovlar oilaviy dastasi, ayniqsa Urgutlik Saidovlar va Hakimovlar oilaviy dastalari respublika miqyosidagi ko’rik-tanlovda I va II o’rinni egallab kelishlari Samarqand viloyatida oilaviy ansambllarga katta e’tibor berilgandan darak beradi va bular mustaqillik sharoitida milliy qadriyatlarni tiklanishida, oila-jamiatning asosi ekanligi amalda o’z aksini topganini ko’rsatdi.

Mustaqillik sharofati bilan madaniyat muassasalari ham dadil qadamlar bilan olg’a yura boshladi. Mirzo Ulug’bek Tarag’ay tavaludining 600 yilligini nishonlashda “Ulug’bek yevropada”, “Mirzo Ulug’bek” akademiyasi: “Ulug’bek va hozirgi zamon”, “Ulug’bekning arxitekturaga oid merosi nomli davra suhbatlari, ko’rgazmalar, konsertlar uyushtirildi. Alisher Navoiyning 552 yilligiga bag’ishlangan “Ta’zim bajo aylay sizga avlodlar” deb nomlangan kechalar, 1-sentyabr mustaqillik kuniga “O’zbekiston Vatanim manim” nomli teatrlashtirilgan ommaviy chiqishlar, “Qiziqchi-93”, “Kamolot-93”, “Nafosat-93” nomli ko’rik-tanlovlar va hamda mehribon onalarimizga bag’ishlangan “Onajonim mehri quyoshga teng”, “Jannat onalarimiz oyog’i ostidadir”, “Bolalarning quvonchi onaning baxti” nomli badiiy kompozitsiyalar o’tkazildi. Yuqorida nomlangan tadbirlar qatoriga “Istiqlol madhi” nomli ko’rik tanlovi ham o’tkazildikim asosiy maqsad-badiiy havaskorlik xalq ijodiyoti va milliy san’atni shakllantirish, uning rivojlantirishga ulush qo’shish, hamda yangi-yangi iste’dod sohibalarini topish va kashf etishdan iborat.

Xalq ashula va raqs dastalari dasturlari ham yildan-yilga boyib bormoqda-”Buloq bo’yida”, “Husayn 5”, “Latifa”, “Bahor nashidasi”, “Soqiynomai savti kalon”, “Saraxbori Dugoh”, “Dilxiroj”, “Doira raqsi”, “Tinchlik istaymiz”, “Xumor”, “Dil rozi”, “O’ynar” va boshqa kuy va qo’shiqlar shular jumlasiga kiradi.

Etnografik-folklor jamoalari “Yallama-yorim”, “Deydiyo”, “Yallali bobo”, “Qorasoch”, “Omon yor”, “Qayda bor” nomli aytishuv va laparlar bilan omma ko’nglini olganlar.

Mamlakatimiz tarixida, xalqimiz hayotida mustaqillik yang-yangi yorug’ va xotirada qoladigan nurli sahifalarni ochib berdi. Samarqand badiiy havaskorlik jamoalari viloyat va respublika teleradiolarida tez-tez chiqishlar uyushtirdilar. Mustaqillik nashidalar bilan havaskorlik jamoalari Fransiyada, Italiyada, Shveysariyada, Turkiya va Germaniyada ijodiy safarlarga bo’lib milliy o’zbek san’atini namoish etib qaytganlar. Shahardagi Registon maydoni mustaqillik tantanalarini o’tkazishda asosiy markaz bo’lib qoldi. Ilmiy izlanishlar, nodir musiqiy durdonalarni ro’yobga chiqarish va ularni xalq orasida targ’ibot etish kabi xayrli ishlar amalga oshirildi. Shular qatorida Xoji Abdulaziz Abdurasulovga bag’ishlangan “O’lmas navolar”, Abdulla Qodiriyga atab “Moziyga qaytib ish

ko'rmoq xayrli deydilar", viloyat baxshi-shoirlari ijodidan "Bulbul bo'lib sayrayotgan do'mbira" nomli bebaho tadbir va yozuvlarni tilga olish mumkin.

Viloyatda shu kunga kelib 198-ta ashula va raqs jamoalari mavjud. Madaniyat bo'limi ayniqsa raqs jamoalariga alohida e'tiborini kuchaytirmoqda. Bog'ishamol tumanidagi "Perominad", Go'zalkent tumani madaniyat uyi qoshidagi raqs to'garaklari (rahbari N.Usmonova) Oqdaryodagi "O'zbekiston gullari", Siyob tuman "Navnixol" (rahbari G.Qosimova) jamoalari Samarqand va respublika miqyosidagi tantana va katta-katta tadbirlarda qatnashib, xalq olqishlariga sazovar bo'lmoqdalar.

Samarqand viloyatida jami bo'lib 1943-ta da'vatxona (klub) muassasalari mavjud. Bu da'vatxonalarda (klublarda) 34.508 kishi qatnashadi. Shularda 17490-ta xotin-qizlar, 13959-ta bolalar va o'smirinlar. 1943-ta klub muassasalardan 815-tasi bolalar va o'smirinlar uchun. Viloyatda 238-ta havaskorlik uyushmalari va qiziqish bo'yicha klublar va bu uyushmalarda 5127 kishi qatnashmoqda.

Badiiy havaskorlik ijodiyoti, to'garak va jamoalarning jami-1670-tani tashkil qiladi va bulardan 28.496 kishi qatnashadi. 1670-ta jamoalardan 815-tasi bolalar va o'smirinlar badiiy havaskorlik jamoalari va bularda 13.959-ta bolalar va o'smirinlar qatnashadi.

Mazkur yilda Samarqandda Burhoniddin Al-Marg'iloniyni 910 yilligi, Abu Mansur Moturudiyni 1130 yillik tantanalarini, Samarqand shahrida o'tkazilgan Respublika qo'g'irchog' teatrlari ko'rik-festivali kabi tadbirlar yilimizning asosiy sanalari bo'ldi deyish mumkin. Yil davomida 20 otiq turli ko'rik bellashuvlari bo'lib o'tdi. Respublika ko'rikklarida Samarqandlik havaskorlar yuqori o'rinlarni egallab madaniyatimizning gullab yashnashiga o'zlarining munosib hissasalarini qo'shishdi. Bular orasida yangi iste'dod egalari: Aziza Barotova, Dilorom G'ulomova, Asliddin Boboqulov, Ravshan To'xtayev, Nozima Rustamova, Alisher Saidov, Feruza Rizayeva va boshqalar, viloyat hokimligi tomonidan ta'sis etilgan "eng yaxshi qo'shiq" ijrochilari ko'rigi g'oliblari bo'ldilar.

Har yili Mustaqillik bayramini zo'r tantana bilan nishonlash odat tusiga kirib qolgan. Bu yilgi Bayram dasturida qatnashishi uchun ikki mingdan ortiq badiiy havaskorlar va viloyatimiz atoqli san'atkorlari bevosita jalb etildi.

Har yili bo'lib o'tadigan "Bolalarni himoya qilish" kuniga bag'ishlab shu yil ham "Hur Vatan seniki-tonglar seniki" nomi karnaval kechalari bo'lib o'tdi.

Badiiy havaskorlik jamoalari dasturlarida yangi-yangi, zamonaviy qo'shiqlar yangra boshladi: Erkin Vohidov she'ri bilan "Ona diyorim", Ismat Jabborov she'ri bilan "Istiqlof muborak", Sobir Abdulloning "Vatan omon bo'lsin", Sh.Xolmuhammedovning "Bobom Sohibqiron" kabi qo'shiqlari misol bo'la oladi.

Hozirga qadar viloyatimizda 34-ta xalq unvoniga ega bo'lgan jamoalar faoliyat ko'rsatmoqda. Bulardan 9-tasi xalq drama va qo'g'irchoq teatrlari, 19-tasi ashula va raqs dastalari, 2-tasi folklor-etnografik, 2-tasi xor jamoalari, 1-ta tasviriy san'at, 1-ta "Prominad" zamonaviy raqs guruhidir.

Xalq ashula va raqs dastalari ohistalik bilan pulli konsertlar uyushtirishga ham kirishdilar. Mazkur konsertlar tumanlarimizning turli jamoa xo'jaliklarida, o'yingohlarida, dala shiponlarida, da'vatxonalarda, g'alla o'rim mavsumlarida

tashkil etildi. Bu konsertlarda “Beshqarsak” (Urgut tumani), “Yoshlik” (Bulung’ur), “Oq oltin” (Paxtachi tumani), “Rohat” (Ishtixon tumani), “Zarbuloq” (Narpay tumani), “Zarafshon” (Kattaqo’rg’on tumani) va boshqa xalq ashula va raqs dastalari qatnashdilar.

Viloyat mehnatkashlarida xizmat qilish, ularning hordiq chiqarishlarida ko’makdosh bo’lish niyatida Temiryo’l tumanidagi “Panjob” ashula va raqs dastasining xazmatlari maqtovg’a muvofiqdir. Bu dasta “Sog’lom avlod” yilida o’zining o’n yillik hisobot konserti H.Olimjon teatri binosida o’tkazib katta olqishlarga sazovor bo’ldi. Ansamblning 90 foiz qatnashchilari malakali mutaxassislardan iborat bo’lib mashg’ulotlarni tajribali murabbiylar H.Fayzulloev, J.Kozimov, H.Xolov, S.Bozorova, X.Baqoyev, Sh.G’ulomovlar olib bormoqdalar. Mazkur dasta ham pulli konsertlar uyushtirib, hozirgi bozor iqtisodiyotining og’ir vaziyatiga qaramay ansambl o’ziga kiyim-kechak, texnik vositalari, musiqa asboblari sotib olmoqda.

Viloyatimizda ancha yillardan beri xalq qo’g’irchoq teatrlari faoliyat ko’rsatib kelmoqdalar va bu jamoalar o’z spektakllarini viloyat va shahar maktablarida, bolalar bog’chalarida, mehribonlik uylarida namoyish etib kelmoqdalar. Bular: “Buratino” (Bog’ishamol tumani), “Kamalak” (Oqdaryo tumani) Kattaqo’rg’on shahar madaniyat uyi qoshidagi xalq qo’g’irchoq teatri va boshqalar. Yutuqlar bilan bir qatorda bu jamoalarda bir qancha kamchiliklar ham mavjud-kim, bularni yechish, viloyat hokimligi va madaniyat boshqarmasi rahbarlari tomonidan asta-sekinlik bilan amalga oshirilmoqda.

Viloyat xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar ilmiy-uslubiyat markazida har yili madaniy-ma’rifiy xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish to’g’risida seminarlar, o’qishlar tashkil etilib kelinmoqda. Bu o’qishlarda an’anaviy urf-odatlar, bayramlar, milliy qadriyatlarni tiklash masalalari o’rganiladi. Bu malaka oshirishda viloyat miqyosida o’z natijalarini bermiqda.

Viloyat xalq ijodiyoti ilmiy-uslubiyat markazi viloyatdagi barcha jamg’armalar bilan hamkorlikda aholini dam olishlari uchun bir qancha ishlarni amalga oshirmoqda. “Nuroni jamg’armasi”, “Mahalla xayriya jamg’armasi”, “Ma’naviyat va ma’rifat markazi”, “Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati”, STV va STR telekompaniyalari shular jumlasiga kiradi.

“Sharq taronalari” xalqaro festivalida viloyat badiiy havaskorlik jamoalari 1,5 oy davomida Registon maydonida tayyorgarlik ko’rdilar va bu anjumanni ko’tarinki ruhda o’tkazdilar.

O’zbekiston madaniyati ishlari vazirligi farmonlariga asosan respublikamiz viloyatlarida “Namunali va xalq” jamoalarining respublika ijodiy sinovlaridan o’tkazish odat bo’lib qolgan.

2001 yil, sentyabr oyida Samarqand viloyatida ham bu sinovlar bo’lib o’tib unda 34-ta “Xalq havaskorlik” unvoniga ega bo’lgan badiiy havaskorlik jamoalari ishtirok etdi. Bu sinovlar natijasida Kattaqo’rg’onidagi “Chavki” va Pasdarg’om tumanidagi “Sayqal” ashula va raqs ansamblari boshqa jamoalarga qaraganda ancha sust deb topildi, qolgan jamoalar esa sinovdan muvoffaqiyatli o’tdilar. Yutuqlar bilan bir qatorda kamchiliklar: milliy raqs san’atiga katta e’tibor berishi,

qo'g'irchoqlarning eskirganligi, texnik jihozlarni kamligi, musiqa asboblari yetishmaganligi, ayniqsa qadimiy milliy asboblardan ud, qonun, tanbur, dutor cholg'u asboblari jamoalarda bo'lishi talab etildi.

Har yili respublika miqyosida bo'lib o'tadigan "O'zbekiston Vatanim manim", "O'zbekiston qo'shiq bayrami", "Alla" ijrochilarining ko'rigi, "Mustaqillik" bayramlarida, "Navro'z" tantanalarida Samarqandlik san'atkorlar ham qatnashib, xalq hurmatiga sazovor bo'lmoqdalar.

2.2. Hoji Abdulaziz Abdurasulov ijodi va u bastalagan qo'shiqlarni kuylash jarayonni bilan bog'liq usubiy tavsiyalar

20-yillarda savodsizlikni tugatishga e'tibor kuchayib, ko'plab maktab, texnikumlar, maxsus o'quv yurtlari, shu jumladan badiiy-musiqaviy bilim yurtlari ham tashkil etildi. Bu vazifalar hali feodal munosabatlari turmushda ustun darajada bo'lgan turkiston o'lkasi uchun muhim ahamiyat kasb etardi.

1919 yil avgustda tuzilgan Turkiston maorifi xalq komissarligi qoshida san'at bo'limi ham bo'lib, u uch kichik bo'limlardan: musiqa, teatr, tasviriy san'at bo'limlaridan iborat edi.

Musiqa bo'limi Turkiston respublikasining butun musiqaviy hayotini birlashtiruvchi, rahbarlik va nazorat qiluvchi yagona markaziy organ edi. Bo'lim musiqa tashkilotlarining faoliyat dasturini ishlab chiqdi va yo'naltirib turdi. Musiqa bo'limining vazifalariga quyidagilar kirardi:

1. a) Turli yo'nalishdagi musiqaviy va umuta'lim musiqa maktablari tarmog'ini tashkil etish.

b) Umumiy mehnat maktablariga, birinchi navbatda, tub millatlar bolalari uchun musiqaviy ta'limni joriy etish.

2. Turli-tuman xor, orkestr konsertlari tashkil etish.

3. Katta yoshdagi tub aholi orasida ish olib borish.

4. O'lkamiqyosida ishlarni tashkil etish. (8,10).

Arxiv materiallarini o'rganishda shu narsa aniqlanadiki, maorif komissarligining musiqaviy bo'limi shu sohaga tegishli boshqa bir qator vazifalarga ham rahbarlik qilgan. U, jumladan, konsert, pedagogik, etnografik, ma'muriy sohalarni ham qamrab olgan. Umuman esa, musiqa bo'limining vazifalari quyidagilar bo'ladi:

1. a) Musulmon ommasini Sharq musiqaviy san'atining mazmuni va go'zalligi bilan keng ommadan tanishtirish.

b) Musiqaviy yaqinlashuv hamda Sharq xalqlarini birlashtirish maqsadida yevropaliklarni Sharq musiqa san'ati bilan tanishtirish.

v) Ta'lim maqsadlarida musulmon ommasini yevropa san'ati bilan tanishtirish.

g) Musiqa bo'limi barcha musulmon musiqa tashkilotlariga rahbarlik qilib, ko'rsatma, yo'l-yo'riqlar berib borgan.

3. Musiqa bo'limi qoshida mahalliy milliy musiqa seksiyasi tashkil etilib,

uning maxsus vazifasi qadimiy xalq musiqasi va qo'shiqlarning bilimdonlari rahbarligida musulmonlarni mahalliy musiqa asboblari chalishga o'rgatish bo'lgan.

4. Musiqa bo'lim tasarrufiga Toshkent eski shahar konservatoriyasi ham kiritilib, uning qoshida 100 o'quvchiga mo'ljallangan yotoqxona ochildi.

5. Musiqa bo'limi qoshida 60 o'quvchi musulmonlardan iborat musiqa-o'rgatuvchilar kurslar ochilib, ular musulmonlar orasida dastlabki musiqa va ashula o'qituvchilari bo'limlari belgilanadi.

Musiqaviy ta'limning o'lka uchun yangi bo'lgan shakllarini egallashda Turkiston xalq konservatoriyasi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Konservatoriyaning ochilishi umuiy madaniy-oqartuv ishlaridagi zaruriy bo'g'in sifatida qaraldi va 1918 yil 21 aprelda tashkil etilgan Turkiston xalq Universiteti bilan bevosita bog'liq bo'ldi. Universitet rektori A.V.Popov rahbarligidagi tashkili qo'mita V.A.Uspenskiy, V.Kox, V.F.Sakovich, Z.A.Chernyavskiy kabi taniqli musiqa va fan arboblari tarkibida tuzilib, xalq konservatoriyasining asosiy vazifalarining umumiy belgilarini ishlab chiqdi. Bular: keng ommaga musiqa asboblari ishlatishga, musiqa nazariyasi asoslarini egallash, badiiy asarlarni tushunish va o'z kuchlari bilan ijro etishga imkoniyat yaratish edi. (5,35,56).

Toshkentliklarning bu ijobiy tashabbusini Samarqand, Buxoro va Namanganda ham qizg'in quvvatladilar. 1919 yilda Samarqandda ham o'lka xalq xo'jalik kengashi hamda maorif va xalq ta'limi bo'limining viloyat komissiyasi qarori bilan konservatoriya ochildi.¹

Xalq konservatoriyasi o'z oldiga, birinchi navbatda yoshidan qat'iy nazar Samarqand aholisiga boshlang'ich musiqa tarbiyasini berish vazifasini qo'yadi. Konservatoriyaning ta'sischiylari "Murojaatnoma" e'lon qilib, unda "Sizning qadoq qo'llaringiz hozirga qadar musiqa asboblari tegmaganidan, siz notalarni bilmasligingizdan aslo xijolat tortmang. O'zingiz ham keling, bolalaringizni ham yetaklab keling"-deb yozilgan edi. (8,7).

Opera dirijyori va skripkachi G.V.Bauer xalq konservatoriyasi direktori bo'ladi. O'qituvchilar qatorida Samarqandda malakali kadrlar tayyorlashga katta hissa qo'shgan musiqachilar bor edi. Masalan, L.A.Kondyba, o'z kasbi bo'yicha harbiy dirijyor, xalq konservatoriyasining asoschilaridan biri bo'ldi. O'zbekistonda taniqli musiqashunos, keyinchalik Toshkent davlat konservatoriyasining dosenti bo'lgan I.N.Korelova o'z pedagogik faoliyatini Samarqand xalq konservatoriyasida boshlagan edi.

Xalq konservatoryasining qimmatli jihatlaridan biri o'quv jarayonining o'sha davr uchun qoyatda tashkil etilishi, ko'p sonli, salmoqli maxsus bo'limlarining ish olib borishi hisoblanadi. Fortepiano, torli, xalq musiqa asboblari, opera, xor qo'shiqchiligi, musiqaviy-nazariy fanlar, estetika, ifodali o'qish bo'limlari ochildi.

Ikki yillik o'qish guruh va yakka tartibdagi darslar tizimida olib borilgan. Bu diqqatga sazovor ma'lumot hisoblanadi. Ishtirokchilarnig guvohlik berishicha, Toshkent xalq konservatoriyasida yakka tartibdagi darslar tizimli amaliyotda qo'llanilmagan, asosan ma'ruza darslari o'tilishi rejalashtirilgan edi. Bu

yo'nalishga Moskva, Petrograddagi bir qator xalq musiqa maktablari ham amal qilardi.

Turli shaharlarda ochilgan xalq konservatoriyalari nafaqat yangi tipdagi tinglovchini, musiqa havaslarini, balki maorifni, jamoat arbobi sifatidagi yangi malakali musiqachilarning ham shakllanishiga yordam berdi.

20-yillar oxirida aralash, tabaqalashmagan turdagi o'quv yurtlari ko'pchilikni tashkil etardi. O'zbekistonning poytaxti bo'lgan Samarqandda 1928 yilda musiqa va xoreografiya instituti ochildi. Institutning faoliyati asosan ilmiy-tadqiqot ishlariga qaratilgan bo'lsada, unda o'quv-pedagogik ishlar ham olib borildi. Aynan shu yerda M.Ashrafiy, M.Burxonov, D.Zokirov, M.Leviyev, Sh.Ramazonov, T.Sodiqovlar o'zlarining ilk malakaviy ma'lumotlarini olgan edilar.

Institut to'rt yil faoliyat ko'rsatib, 1932 yilda San'atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti sifatida qayta tashkil etildi va Tshkentga ko'chirildi.

Institut faoliyatining eng muhim yutug'i shu bo'ldiki, aynan uning jamoasi tomonidan O'zbekistonda malakali musiqaviy ta'limga hamda xalq og'zaki ijodiyotini o'rganishga tamal toshi qo'yildi. Institut faoliyatida musiqaning elementar nazariyasi, musiqa tarixi, dirijyorlik predmetlariga alohida e'tibor qaratildi. Institut dargohida ilk bora o'zbek talabalari uchun ayrim o'quv materiallari tarjima qilindi.

Bir vaqtning o'zida o'zbek musiqasini o'rganish va o'qitish bo'yicha ham imkoniyat darajasida ishlar olib borildi. Pedagoglar jamoasiga Shashmaqomning keksa va mashhur bilimdonlari-Shorahim Shoumarov, Usta olim Komilov, Abdusoat Vahobov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Matyusuf Xarratov kabilar jalb etildi.

Samarqand musiqa va Xoreografiya instituti jamoasining o'zbek xalqining boy va o'ziga xos madaniyatga alohida e'tibor qaratishga respublika rahbariyati ishidagi umumiy ijobiy tendensiyalar ham katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1925 yil 5 fevralda maorif xalq komissarligida ilmiy-pedagogik komissiyaning maxsus yig'ilishida O'zbekistonda musiqaviy ta'lim to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqiladi. Komissiya a'zolari o'zbek musiqasini jiddiy o'rganishga ehtiyoj sezilganligini ko'rsatadilar. 1929 yilda Samarqand instituti va boshqa musiqa o'quv yurtlari oldiga xalq ijodiyotini chuqur o'rganish va uning boy merosi asosida zamonaviy asarlar yaratish vazifasi qo'yildi. N.N.Mironov rahbarligi ostida besh yuzdan ortiq xalq ijodiyotining badiiy namunalari yozib olindi, ularning ancha qismi nashr etildi. N.N.Mironovning to'plamga tayyorlagan kirish maqolasida o'zbek milliy musiqa asboblariga tavsif berilgan, mashhur xalq musiqachilar to'g'risidagi biografik ma'lumotlar keltirilgan, uning tomonidan yozib olingan o'zbek va tojik qo'shiqlari tavsiflangan.

To'plamlar bir qator kamchiliklarga ega bo'lishga qaramasdan, muhim tarixiy qiymatga egadir. Yanada ahamiyatlisi "Farg'ona, Buxoro, Xivada keng tarqalgan xalq qo'shiqlari, og'zaki an'analar musiqaviy asarlarining yozib olinganligi hisoblanadi" (4,8, 135).

Institutga talantli yoshlar havaskorlik jamoalaridan, yoki 1924 yilda tashkil etilib, institut ochilguniga qadar faoliyat ko'rsatgach musiqa texnikumidan

kelardi.¹ Institutdagi o'qish odatda bevosita amaliy faoliyat bilan birga qo'shib olib borilardi.² Bu bilan talabalarning Samarqandning musiqaviy-ijtimoiy hayoti, teatrlari, ridiokamiteti bilan o'zaro aloqada bo'lishlari yo'lga qo'yilgan edi.

Samarqand musiqa va xoreografiya institutining respublikada musiqa tarbiyasini yo'lga qo'yishdagi xizmatlari beqiyos bo'ldi.

O'zbekistonda musiqaviy ta'limning jiddiy muammosi malakali kadrlarning yetishmasligi bilan bog'liq edi. Asos bilim beruvchi boshlang'ich musiqaviy bilim beruvchi maktablarning keng tarmog'i yaratilmagan edi. Ushbu bo'shliqni to'ldirish maqsadida 30-yillarda O'zbekistonning ko'pgina shaharlarida-Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand shaharlarida Musiqa maktablari ochildi.

Samarqandda 1936 yil 1 mayda ochilgan musiqa maktabi bo'lg'usi musiqachi-o'quvchilarni tarbiyalashda katta rol o'ynadi, deyarli o'n yildan keyin tashkil etilgan musiqa bilim yurti uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarda, og'ir sharoitlarga qaramasdan, san'at va badiiy ta'lim sohalari e'tibordan chetda qolmadi. 1924 yil 24 avgustda xalq komissarligining san'at ishlari bo'yicha qo'mitasining o'quv yurtlari bosh boshqarmasi ishlab chiqarishdan ajralmagan holdagi umumiy musiqaviy ta'lim kurslariga ish rejalarini yuboradi. Shu qaror asosida Samarqand kurslar va musiqa maktabi qoshida musiqaviy-adabiy lektoriyalar tashkil etiladi. O'zbekiston xalq komissarlari Kengashining 1944 yil apreldagi qarori va ko'rsatmasida, jumladan "Samarqand shahridagi mavjud xo'jalik hisobidagi musiqa maktabi bazasida 1 sentyabrdan boshlab 150 o'quvchiga mo'ljallangan yetti yillik musiqa maktabi tashkil etilsin"-deyiladi. (8,8).

Urushdan keyingi davr muhim ijtimoiy-siyosiy va madaniy voqyealarga boy bo'ldi. Ommaviy estetik tarbiyaga e'tibor kuchaydi. Shu munosabat bilan Samarqand viloyatida yangi musiqa maktablari ochildi. Musiqachi-o'quvchilar, ijrochilar, badiiy havaskorlik to'garaklari rahbarlari tayyorlovchi o'quv yurtlari yaratish ehtiyoji vujudga keladi.

1945 yil 18 avgustda tuzilgan Samarqand davlat musiqa bilim yurti mazkur muammoni hal etishga qaratiladi. U № 1 musiqa maktabi bazasida tashkil etilgan edi.

Musiqa bilim yurti va № 1 bolalar musiqa maktabi 7 yil davomida bir ma'muriyat rahbarligida ish olib bordi. Bolalar musiqa maktabining, keyinchalik esa musiqa bilim yurtining ham tashkilotchisi va birinchi direktori O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi G.V.Bauer bo'ldi. Samarqandda musiqaviy ta'limga asos solgan bu pedagogik jamoa Moskva va Pererburg konservatoriylarida bilim olgan, yuqori qobiliyatli musiqachilardan iborat edi. Urush yillarida O'rta Osiyoda ko'chib kelgan D.F.Kublisskaya, Ye.A.Smirnova, V.I.Lukin, N.N.Shilov, R.A.Shmidt, K.N.Keranov va boshqalar bo'lg'usi mutaxassislarni tayyorlashga katta hissa qo'shildilar.

Samarqand musiqa bilim yurtining tug'ilishi va rivojlanishi tarixi direksiyasining, pedagogik jamoaning o'quv jarayonini yaxshilash, milliy kadrlar tayyorlash darajasini, bitiruvchilarning malakasini yuksaltirish bo'yicha doimiy ishlarini yaqqol aks ettiradi. Musiqa bilim yurtining dastlabki yillardagi ishlari

ayniqsa qiyin sharoitlarda kechdi. Bular moddiy ta'minot, kadrlar malakasi bilan bog'liq edi.

Noqulay sharoitlarga qaramasdan pedagogik kuchlarning faol safarbarligi o'zining sezilarli natijalarini bera boshladi. Ko'pchilik o'qituvchilarning shaxsiy aloqalari tufayli Toshkent, Moskva san'at o'quv yurtlari bilan aloqalar yo'lga qo'yila boshlandi. Toshkent davlat konservatoriyasi qoshida sirtqi bo'lim ochilishi ham muhim ijobiy omil bo'ldi. 50-yillarning o'rtasi-60-yillar boshidan markaziy nashriyotlar tomonidan oliy va o'rta musiqa o'quv yurtlarida dars o'tish uslublari bo'yicha ancha ilmiy ishlar chop etildi. Mutaxassis-musiqachilar tarbiyaning oliy o'quv yurti tizimini takomillashtirish tendensiyasi o'rta maxsus bo'g'indagi ishlar sifatini oshirish tendensiyasi bilan birikib keta boshladi.

Bilim yurtining o'quv muassasi sifatida shakllanishidagi muhim xususiyati uning bo'limlarining turli vaqtlarda ochilishi bo'ldi, bu obyektiv shart-sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy-xo'jalikni hamda o'quv-ishlab chiqarish sohalaridagi qiyinchiliklar edi. Buning oqibatida mutaxassislar tayyorlashda birmuncha nomutanosibliklar ro'y berdi. Bilim yurti shakllanishining dastlabki davrdagi jiddiy kamchilik-bu o'sha vaqtda boshqa bo'limlardagi ishlarga ham o'z ta'sirini o'tkazuvchi bo'lgan nazariy bo'limining yo'qligi hisoblanadi¹. Chunki nazariy fanlardan o'qitishni yaxshi yo'lga qo'ymasdan turib, professional musiqachilarni tayyorlashni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Nazariy bo'limning yo'qligi umumiy musiqaviy jarayonini og'ir ahvolga solib qo'ydi¹.

40-yillar oxiri-50-yillar davomida, boshqa joylarda bo'lgan kabi, Samarqand bilim yurtida ham, oliy ma'lumotli mutaxassislar yo'qligi va pedagogik tarkibning kam sonligi sababli eng yaxshi bitiruvchilar o'qituvchilik ishlariga olib qolindi.²

Toshkent davlat konservatoriyasi va boshqa musiqa oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini madaniyat vazirligi hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan viloyat bilim yurtlariga jalb etishdagi qoniqarsiz ishlar, shuningdek bilim yurti rahbariyatining ham birmuncha e'tiborsizligi kabilar pedagogik tarkib kasbiy darajasining o'sib borishini jiddiy qiyinlashtirdi.

Yangi bilim yurtining o'sishidagi katta kamchilik o'quvchilar bilan ishlash jarayonida yaqqol ko'rinadi. 40-50- yillar davomida o'qishga kiruvchilar va bitiruvchilar o'rtasidagi jiddiy nomutanosiblik kuzatildi. Bu o'quvchilarni tanlashdagi zaiflikning qonuniy oqibati edi. Ayniqsa mahalliy millat vakillari orasidan musiqaviy iqtidorli yoshlarni izlash bo'yicha ishlar juda bo'sh edi, qabul imtixonlarida ham jiddiy xatolar bo'lardi. Natijada qabul qilinganlarning ko'pchilligi o'qish jarayonida o'zlarining kasbiy layoqatsizliklarini sezib qolardi. Qabul paytidagi talabalarning past darajasi deyarli barcha bo'limlarda o'quvchilarning yetishmasligi bilan izohlanardi.

Qabul qilinganlar va bitiruvchilar sonining taqqoslanish ishni yo'lga qo'yishidagi bo'sh jihatlari, ham, o'quvchilarni tanlash va o'qitishdagi obyektiv qiyinchiliklarni ham to'liq darajada tasdiqlaydi: 1949 yilda bilim yurtining 5 kishi bitirib (23 kishi qabul qilingan edi), 1950 yilda esa-4 kishi bitirib chiqdi (16 kishi qabul qilingan edi.).

Qabul qilingan sonining kamligi va keyinchalik ularning yanada kamayib borishi shunga olib keldiki, 40-yillar oxiri-50 yillar boshlaridagi davrlarda atigi bir nechtadan mutaxassis bitirib chiqdi xolos.³

Ishning bu tarzda yo'lga qo'yishi kutiladigan natijalarga olib kelishi mumkin emas edi. Shu sababli oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qabul imtixonlarini o'tkazish siyosatini birmuncha o'zgartirib, masalan sifat jihatdan emas, balki son jihatidan hal etadi, ya'ne o'qishga kiruvchilarning sonini jiddiy ko'paytirish yo'lidan boradi. 50-yillar oxiri-60 yillar davomida qabul qilinganlarning soni 90-dan 127 kishiga bo'lib, bitiruvchilar esa-53 tadan 72 kishigacha bo'lgan.

Bilim yurti tuzilganidan boshlab o'tkir muammolardan biri o'zbek milliy kadrlarini tayyorlash hisoblanadi. Dastlabki yillarda bu o'quvchilar va pedagogik tarkibga ham taalluqli edi. Qabulning birinchi yilida mahalliy millat vakillaridan umuman yo'q edi, ikkinchi yilda-ikki kishi, faqat uchinchi yildagina 15 kishiga yetkazildi. Biroq ulardan birortasi ham musiqa bilim yurtini bitirib chiqmadi.

Shunga yaqin ahvol keyingi yillarda ham saqlanib qoladi. Masalan, qabulning to'rtinchi yilda mahalliy millatlardan 15 kishi qabul qilinib, ulardan 3 tasi o'zbek qizlari edi. Ammo 1952 yilgi bitiruvchilar orasida bu talabalardan yo'q edi. Buning ustiga, agarda bo'limlar bo'yicha qaraladigan bo'lsa, xalq musiqa asboblari bo'limiga qabul qilingan 17 kishidan, o'quv davomida barcha 17 tasi ham qoqilib ketdilar. Buning ko'plab sabablari bo'lib, ulardan biri-turmush sharoitlarining og'irligi edi. Bilim yurti 50-yillar oxirigacha ham yotoqxonaga ega emas edi. Tayyorlov bo'limi yo'q edi.

O'qishga tayyorgarliksiz kirganlar bilim yurti asosiy kurslari oldiga qo'yilgan vazifalarni bajara olmas edilar. Faqat 50-yillardagina mahalliy millat vakillaridan dastlabki bitiruvchilar paydo bo'la boshlaydi¹.

60-yillar o'rtasida va 70 yillar boshlarida bilim yurtining ish sifati jiddiy yaxshilandi. Nafaqat pedagoglarning soni ko'paydi, balki ularning malakalari ham oshdi². O'qituvchilarning g'oyaviy-siyosiy va ishchanlik tayyorgarligi oshib bordi. Ularning ko'pchiligi Toshkent davlat konservatoriyasining sirtqi bo'limiga o'qishga kirdilar. O'qituvchilar orasida tajriba almashuv faollashdi, ochiq darslar o'tkazilib, muhokama etiladi, o'zaro darslarga kirishlar keng qo'llaniladi.

1968 yil 24 aprelda o'tkazilgan pedagogik konferensiya mavzulari bo'yicha qiziqarli va rang-barang bo'ldi. Jumladan, O'zbekiston kompozitorlarining qo'shiq ijodkorligi", "Navoiy asarlari teatri sahnasida", "Bolalarni sinfdan tashqari musiqaviy tarbiyalash", "G'arb rassomchiligi va musiqasida zamonaviy formalizmlar" mavzusidagi ma'ruzalar eshitildi.

Pedagoglarning o'zbek musiqa madaniyatiga alohida qiziqish bilan qarashlari ham, qimmatli bo'ldi. 60-yillarda hali o'zbek musiqasi bo'yicha yetarlicha qo'llanmalar yo'q edi. Shu boisdan musiqashunoslikning ushbu bo'limiga bag'ishlangan har bir ma'ruza o'zbek musiqa madaniyati tarixi kursi uchun g'oyatda ahamiyatli edi. Bir qator pedagoglar shaharning musiqaviy-ijtimoiy hayotti haqidagi maqolalar bilan matbuotda doimiy chiqishlar qilib turdilar.

60-70 yillarda kirish imtixonlarining tanlov asosida o'tkazilishi tufayli talabalarning umumiy darajasi ham birmuncha o'sib bordi.

Hukumat qarori asosida, murakkab maishiy sharoitlarga qaramasdan bilim yurti jamoasi 1962 yilda sirtqi va kechki bo'limlarni ochishga qaror qildi. Sirtqi bo'limga musiqa maktablarining, madaniyat uylari va badiiy havaskorlik jamoalarining maxsus musiqaviy bilimga ega bo'lmagan pedagog xodimlari qabul qilindi. Kechki va sirtqi bo'limga talabalar qabul qilish 1973 yilgacha davom etdi.

“Maktabning turmush bilan aloqasini mustahkamlash hamda xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida” gi qaror o'quvchilarning pedagogik va ijrochilik amaliyotini rivojlantirish uchun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shu davrgacha pedagogik amaliyot mutaxassislar tayyorlashining zamonaviy darajasi talablarini qoniqtira olmayotganligi yaqqol ko'ringan edi. Bunday amaliyot rejasiz ravishda,, ayrim tashabbuskor pedagoglar tomonidangina olib borilardi, xolos. 1961 yildan boshlab bu ishda sezilarli siljishlar bo'ldi. Keyingi yillarda o'quv dasturiga asosan III va IV kurs o'quvchilari pedagogik, ijrochilik, konsertmeysterlik va dirijyorlik amaliyotlarini o'tmoqdalar.

Amaliyot o'tish uchun № 1,3,6 Bolalar musiqa maktablari, zobitlar uyi qoshidagi musiqa studiyasi, № 30, 31, 39, 40, 34, 45, 50 umumta'lim maktablari, shuningdek “Красный двигатель” zavodi qoshidagi musiqa maktabi, yoshlar saroyidagi musiqa to'garaklari asosiy baza bo'lib xizmat qildi.

Bilim yurti jamoasi Samarqand viloyatining yirik sanoat korxonalari, oliy va o'rta maxsus yurtlari bilan aloqalarni mustahkamlashga katta e'tibor qaratdi. Pedagoglar va o'quvchilar ko'plab ma'ruza-konsertlarda chiqishlar qilib, katta ijtimoiy-oqartuv ishlarini olib bordilar.

50-yillarning boshidanoq bilim yurti jamoasining shaharning keng xalq ommasi bilan yaqindan muloqotga kirishganini ko'ramiz. 1951 yilda Samarqand xalqi orasida rus va g'arbiy yevropa mumtoz musiqasini targ'ib etish maqsadida doimiy harakatdagi lektoriy tashkil etildi. Unda “Borodin va uning ijodiyoti”, “Lyudvig van Betxovenning hayoti va asarlari”, “Petr Ilich Chaykovskiy” va boshqa mavzularda konsert ma'ruzalar tashkil etildi. 1952 yildan maktab o'quvchilari uchun musiqali lektoriy samarali faoliyat ko'rsata boshladi. Bilim yurtining tajribali pedagoglaridan L. Tripolskaya, G.Abgarova, T.Vvedenskaya, N. Zinin, Ye.Smirnova, I.Baturins, V.Lapuxina va boshqalar ma'ruza-konsertlarda ayniqsa faol qatnashdilar. Keng tomoshobinlar oldida o'quvchilarning hisobot-konsertlari berilishi yaxshi an'anaga aylandi. Jumladan, opera sinfining konsertlari juda ommabop edi.

Musiqa bilim yurtining 60-yillardagi yaxshi an'analardan biri harbiy qismlarda otaliq konsertlari qo'yishning tashkil etilishi, hisoblanadi.

1967 yil maydan boshlab qishloq joylardan va boshqa shaharlardan kelgan talabalarning turmush sharoitlari yaxshilandi. 250 o'ringa mo'ljallangan yotoqxon qurildi. 1975 yil sentyabrda bilim yurti qoshida ikkita yangi bo'lim: Samarqand opera va balet teatrining balet truppasi uchun kadrlar tayyorlovchi xoreografiya hamda rassomlik bo'limlari ochildi.

Bir qator qiyinchiliklarga qaramasdan, bilim yurti jamoasi o'z faoliyatida anchagina yutuqlarga erisha oldi. Bilim yurtidan zamonaviy musiqa madaniyatining taniqli arboblari: O'zbekiston xalq artisti, davlat simfonik

orkestrining bosh dirijyori Zohid Haqnazarov, San'atshunoslik nomzodi, Toshkent davlat konservatoriyasi musiqa nazariyasi kafedrasining dosenti S.P.Galishkaya, P.I.Chaykovskiy nomli Moskva davlat konservatoriyasi qoshidagi o'nbir yillik musiqa maktabining o'quv bo'limi mudiri Yu.V.Levin, san'atshunoslik nomzodi, Gorkiy konservatoriyasining dosenti N.D.Bordyug, san'atshunoslik nomzodi, Astraxan konservatoriyasining dosenti L.P.Ivanova, Tataristonda xizmat ko'rsatgan artist E.Zelyalitdinov, ittifoq katta simfonik orkestrining artisti Yu.Xersonskiy, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist U.Kermenchikli, kompozitor A.Malaxov. Leningrad opera studiyasining o'qituvchisi L.Pavlinova. Samarqand opera teatrining solisti Z.Ilyayeva va A.Qurbetdinova kabilar yetishib chiqdilar. Hozirda taniqli musiqashunos, san'atshunoslik doktori professor dosent N.S.Yanov-Yanovskaya ham o'z kasbiy bilimini Samarqand musiqa bilim yurtida olgan edi.

Samarqand san'at bilim yurtining har bir bo'limida ham faxrlanishga arziydigan jihatlar talaygina. Fortepiano bo'limi 250 ta mutaxassis tayyorladi. Ulardan ko'pchiligi: A.Grinberg, M.Nabiyeva, V.Kriniskaya, A.Volox, A.Kofidi, T.Baxoldina va boshqalar respublika tanlovlarida qatnashib, sovrindor bo'lishdi.

Vokal bo'limi o'zining opera sinfi bilan faxrlanadi. Uning kuchi bilan Zobitlar uyi va rus drama teatrida P.I.Chaykovskiyning "Yevgeniy Onegin", "Pikovaya dama", "Iolanta", Dargomijskiyning "Rusalka", Sh.Gunoning "Faust" va boshqa operalaridan sahnalar qo'yildi.

Vokal bo'limining bitiruvchilari Samarqand opera teatrining xorida, bilim yurtining o'zida, filarmoniyada, Kattaqo'rg'on shahridagi, Jizzaxdagi musiqa maktablarida, Samarqand shahridagi musiqa va umumta'lim maktablarida samarali mehnat qilishib, Samarqand viloyati musiqa madaniyatiga katta hissa qo'shmoqdalar.

Xalq musiqa asboblari bo'limi 1956-1957 yillarda tashkil etilgan o'zbek xalq musiqa asboblari orkestri bilan faxrlanadi. 1958 yilda bilim yurtining dastlabki bitiruvchilaridan bo'lgan U.S.Xursandov Toshkent davlat konservatoriyasini tugallab, yana bilim yurtiga qaytdi va mazkur bo'limga rahbarlik qila boshladi. Hozirda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi bo'lgan U.S.Xursandov Samarqand musiqa san'atining rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. U 1961 yildan 1975 yilgacha bilim yurtining direktori bo'ldi va bu yillarda bilim yurtining obro'si ancha o'sdi.

Samarqand viloyatining biror chekka joyi yo'qki, o'zbek xalq musiqa asboblari bo'limi bitiruvchilari ishlamagan bo'lsalar. Bo'lim bitiruvchilaridan viloyat xalq ijodkorligi uyining direktori B.Muhammadiyev, Toshkent radiokomitetining ovoz rejissyori N.G'aybullayevlarni ko'rsatish mumkin. Bo'lim bitiruvchilari butun respublikamizdagi turli jamoalarda samarali mehnat qilib kelmoqdalar.

60-yillarda xalq ommasini musiqaviy tarbiyalash masalalariga e'tibor kuchaydi. Bu vazifaning tarkibiy qismi-umumta'lim maktablarida musiqa darslarini o'qitishni tashkil etish hisoblanardi. Mazkur soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash zaruriyati to'laqonli O'zbekistonning ko'pgina

shaharlaridagi pedagogika institutlari qoshida musiqa va ashula kafedralari ochildi.

1968 yilda shunday kafedra S.Ayniy nomidagi Samarqand davlat pedagogika institutida ham tashkil etildi. Birinchi bitiruvning natijalariyoq g'oyatda samarali bo'ldi. Bo'limni 25 mutaxassis bitirib chiqdi. Ular Sirdaryo, Jizzax, Samarqand viloyatlariga yuborilib, faol mehnatga kirishdilar, barcha bitiruvchilar o'z sohalari bo'yicha ishladilar.

1977 yilgacha birgina xalq cholg'u asboblari kafedrasini (kafedra mudiri-katta o'qituvchi Ya.X.Haqqulov) bor edi. U nafaqat o'zbek xalq cholg'u asboblari bo'yicha pedagoglarni, balki xor bo'yicha dirijyorlarni, pianinochilarni va musiqaning boshqa sohalari vakillari ham birlashtirar edi. 1977 yil fevralda yangi-musiqa va ashula o'qitish uslubi kafedrasini ochildi. Uning asosiy maqsadi ashula o'qituvchilari tayyorlash asosiy kursini chuqur va atroflicha ishlab chiqish hisoblanardi.

Bunday pedagoglarni tayyorlash-mas'uliyati va faxrli ishdir. Amerikalik olim, pedagog Karl Ernst ISME ning IX anjumanidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, "Umumiy kasbiy faoliyatni e'tiborga olgan holda musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda, ularni imkon qadar ertaroq sinfdagi o'quv vaziyati bilan tanishtirib borish zarur. Musiqa o'qituvchisi bo'lishga tayyorlanayotgan talabalar, kollejdagi o'qishning birinchi kunlaridan boshlab, barcha yoshdagi bolalar bilan tez-tez muloqot o'tkazib turishlari lozim. O'qitishning butun kursi davomida musiqaviy tayyorgarlik kuzatish tajribasini ham, shuningdek, o'qitish tajribasini ham qamrab olish kerak. Talabalarning pedagogik amaliyoti kollejni bitirishdan oldingi oxirgi semestr bilangina cheklanib qolmasligi zarur. Yosh o'qituvchi o'zi kollej darajasida musiqaviy bilim olishi bilan birga ularni maktab darajasida taqdim etishga ham o'rganib borishi kerak. U barcha yoshdagi bolalar va o'smirlar musiqaga qay darajada e'tibor berishlarini bilishi zarur".

Taniqli xor dirijyori V.N.Minin ham shu ma'noda fikr yuritadi: "Dirijyorlik san'ati nazariy o'rganish yo'li bilan eng kam darajada egallanishi mumkin. Talaba o'qishning barcha yillari davomida xor bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Faqat shundagina oliy o'quv yurti amaliy dirijyorlik ko'nikmalariga ega bo'lgan to'laqonli mutaxassislarni chiqarishi mumkin".

Pedagogika institutlari musiqa fakultetlarini bitiruvchi mutaxassislar "Modeli" da musiqa asboblari ishlatishni bilish, ashulani o'rgata olish, musiqaning elementar nazariyasi, xor bilan ishlash ko'nikmalari shakllantirishi belgilab qo'yilgan. Maorif vazirligi tasdiqlangan o'quv rejasida uchinchi va to'rtinchi semestrlarda talabalarning xor dirijyorligi amaliyoti o'tishi belgilangan. Biroq, amaliyotning ushbu muhim turi Samarqand pedagogika institutida keyingi vaqtlargacha amalda qo'llanilmayapti. Sababi-talabalarda malakaviy tayyorgarlikning kamligi, ko'pchilik kiruvchilarning musiqa tayyorgarligiga ega emasligidir.

Talabalarning bolalar bilan aloqalari (umuta'lim maktablaridagi ashula darslari) oltinchi (7 hafta) va yettinchi semestrda (8 hafta) amalga oshiriladi. Uslubiyat kafedrasini pedagoglari talabalarining amaliy mashg'ulotlarini nazorat qilib boradilar. Ko'rsatilgan semestrlarning har biri baholi sinov bilan yakunlanadi.

O'quv jarayoni tarkibini yaxshilash maqsadida Samarqand pedinstitutida 1980 yilda yana ikkita kafedra-xor dirijyorligi hamda tarixiy-nazariy fanlar kafedralari tashkil etildi. Samarqand shahri va Samarqand viloyatida milliy maktablarda musiqa o'qitishdagi murakkabliklar hisobga olinib, talabalar tarkibi asosan mahalliy millatlardan tanlab olinadi. Institutda darslar ham o'zbek tilida o'tiladi.

2.3. Samarqandlik bastakor Sharifjon Akramovning ijodiga mansub ayrim qo'shiqlar tahlili.

Bastakor, sozanda, xonanda va qo'shiq yozuvchi shoir Sharifjon Akramov o'zbek milliy musiqa san'atiga ulkan hissa qo'shgan san'at arboblariidan biri edi. U o'tgan asrimizning 30-yillarida ijod qilgan ulkan fan, madaniyat, san'at namoyandalari Vohid Abdullayev, Yunus Rajabiy, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Rixsiy Rajabiy, Shohnazar Sohibov, Sharif Bobokalonov, Gavriel Mullaqandov, David Mullaqandov, Mixail Tolmasov, Ziyodulla Shahidiy, Doni Zokirov, Tolibjon Sodiqov, Nabijon Hasanov, Rustam Mansurov, Asror Jo'rayev, A'zam Kamolov, Javod Obidov, Hojiqurbon Ahmedov, Soliq Ismoilzoda, Shamsi Qiyomov, Samad G'ani, G'ani Abdullo, Hikmatillo Raxmatillayev, Jalol Xo'jayev, Nabiraxo'ja Valixo'jayev, Habib Yusupov, Sa'dullo Jo'raboyev, Hoshim Narziqulov, Abdullo Badriy, Hoji Muyin Shukrullo, Ahad Sulaymonov, Abdurauf Boltayev, G'ulom Abdurahmonov, Baqo Tojiyev, Mirbobo Ziyoyev, Samar Sa'diy, Burhon To'rayev, Sharif Xudoyberdiyev, Halima Zafariy, Zaynab Sodiqova, Zohid Sodiqov, Nazira Enagamova, Fotima Xo'jayeva, Mavlyudv A'zamova, Mavlon Muhiddinov, Hanifa Mavlonova, Qamar Shamsiy, Ahmadjon Umrzoqov, Qayum G'affarov, Gulchehra Suphonqulova, Zohida Burnasheva, Afifa Uralskaya, Lola Sayfullina kabi sahna san'atiga o'z hayotini bag'ishlangan ustozlar bilan hamnafas ijod qiladi. Biri bilan sahnadosh, biri bilan partnyor, yo, dublyor biriga ustozu, biriga shogird bo'lgan Sharif Akramov milliy musiqa va teatrimiz ravnaqiga 50 yil xizmat qildilar. Sharif Akramov maqom sanatining yirik ijrochilaridan Yunus Rajabiy, Rixsi Rajabiy, Hojiabulaziz Abdurasulov, Imomjon Ikromovlar (ped bilim yurtida, san'at instituti) dan sozandalik va xonandalikning murakkab sir-asrorlarini o'rgangan bo'lsa, sahna san'ati bo'yicha Hoshim Narziqulov, Sa'dulla Jo'raboyev, Javod Obidov, Asror Jo'rayev kabi rejisserlardan ta'lim olgandilar.

Teatrda sahnalashtiriladigan musiqali asarlarda odatda musiqali rollar uchun aniq ovozga moslab partiyalar yoziladi. Bo'lajak bastakor Sharif Akramov musiqali dramadagi bosh partiyalarni aytib kelayotgan G'ulom Abdurahmonov, Burhon To'rayev, Abdurauf Boltayevlar (O'zbekiston va Tojikiston xalq artistlari) ni hamisha vokal bo'yicha ustoz deb atar edilar. Doni Zokirov, Nabijon Hasanov, Tolibjon Sodiqovlar davrasida Sh.Akramov bastakorlik (kashfiyoti)ni o'rganadi. Mavlon Muhiddinov, Shohnazar Sohibov, Sharif Bobokalonov, Yu.Rajabiylardan

bo'lajak sozanda dutor, nay, tanbur kabi qator milliy musiqa asboblari maqom sho'balarini professional darajada ijro etishni o'rganadi. Ilk bor Respublika poytaxti bo'lgan Samarqand (1924-1930) yildan ko'proq tom ma'noda yirik madaniyat markazi, teatrlar shahri, ijodkorlar maskaniga aylangani uchun ham bu ulkan shaharda juda ko'plab davlat arboblari fan va madaniyat daholarining o'chmas izi, o'lmas ruhi abadiy saqlanib qolgan edi. Shuning uchun Sh.Akramovga o'xshagan juda ko'plab o'zbek, tojik, yahudiy yoshlari ana shu ijodiy atmosferada tarbiyalanar, ustozlari yo'lidan borib, tom ma'noda milliy madaniyatimizning haqiqiy jonkuyar fidoiylariga aylangan edilar. O'z navbatida bastakor Sh.Akramov o'ziga o'xshagan juda ko'plab san'at fidoiylarini tarbiyaladilar, ularni milliy madaniyatimizning yaratuvchilariga aylantirdilar. Nodirxon Valixo'jayev, Olimboy Rahmonov, Ravshan Hamroqulov, Fazliddin Yoqubjonov, Javodbek Kozimov, Abdulla Abduraupov, Abdurashid Ergashev, Hiroj Jo'rayevlar ustoz yo'lidan borib Samarqand musiqa, vokal, jo'r (xor) san'atini yanada rivojlantirish uchun ijod qilib kelmoqdalar. Bugun ustozning ana shu shogirdlari Samarqandimiz musiqa madaniyatining yirik namoyandalari. Ular san'at dargohlarida har yili yuzlab yosh sozanda, xonandalarni o'qitib mustaqil ijodga yo'llanma bermoqdalar. Ularning rahnamoligida tarbiyalangan ko'plab san'atkorlar poytaxtimiz teatrlarida, konsert birlashmalarida barakali ijod qilishib, mustaqil respublikamiz ma'naviyatini shakllantirishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Demak, ustozning ovozi, tori, yozgan kuy-qo'shiqlari shogirdlardan shogirdlarga o'tib xalqimizning ma'naviy boyligiga aylanib bormoqda:

G'azalnavis ustoz ohanglarida,
Bunyodkor olimning armonlari bor.
Mustaqil yurtimning karvonlarida,
Shoir orzu qilgan sarbonlari bor!
Endi biz kuylaylik erk dostonini,
Shoir orzusiga qanot bo'laylik!
Qo'llaridan tushirmay ustoz sozini,
"Jonon Samarqand"ni mangu kuylaylik.

Ha, ustoz va shogirdlar haqida mumtoz adabiyotimiz daholaridan biri Abdurahmon Jomiy debdilar:

Faromish makun haqqi ustodi ilm,
Ki bor himmati ust bunyodi ilm.
Agar dar dilad mehri ustod nest,
Badasti umedi tujuz bod nest.

Ha, biz ustoz Sharifjon Akramovning musiqa, teatr, she'riyat bo'stonidan bahraman bo'lgan, u zot bilan uzoq yillar birga xizmat qilgan shogirdlarimiz. Ushbu risolida biz baholi-qudrat ustoz hayoti, bosib o'tgan ijodiy yo'lini, u kishining turmush o'rtoqlari, ustozlari va sahnadosh do'stlari haqida hikoya qilamiz. Zero, bizdan keyin musiqashunos, adabiyotshunos, teatrshunos olimlar ustoz va u kishining ustozlariyu, shogirdlari haqida mukammal asarlar yaratsalar ajab emas!

Bo'lajak ko'p qirrali ijod sohibi Sharifjon Akramov endigina 13-14 yoshlarga qadam tashlaganida maorif va madaniyat sohasida inqilobiy uyg'onish avj olgandi. Sobiq sho'rolar o'z mafkurasini, g'oyasini keng tashviqot qilish uchun yagona qurol qilib san'atni olgandi. Hali kino san'ati ovozga ega bo'lmagan bir sharoitda "Proletkult", "Ko'k ko'ylak", "Agitteatr", "Milliy madaniyat markazlari", son-sanoqsiz havaskorlar to'garaklari erta bahorda chiqqan qoziqorin singari ommani, ayniqsa, yoshlarni o'ziga jalb qilardi. Sobiq respublika poytaxti Samarqandda beshta pedagogika bilim yurti, maorif instituti, san'at (musiqa xoreografiya) instituti, san'at (hozirgi Benkov nomidagi) texnikumi, musiqa bilim yurti, ishchi yoshlar konservatoriyasi, ko'plab kechki kurslar faoliyat ko'rsatardi. Teatr va musiqa san'atini rivojlantirish borasida olib borilgan amaliy ishlar dastlab mahallalardan, maktab va ishlab chiqarish korxonalaridan boshlanar edi. Jumladan, "Xujum" pillakashlik, "Bofanda" tikuvchilik fabrikalari qoshida, "Qo'sh hovuz", "Chorraha", "Ko'kmachit" guzarlarida, pedagogika bilim yurtlarida, barcha shahar maktablarida, teatr musiqa studiyalari havaskorlarning turli nomlardagi klublarda yuzlab professional sozandalar, xonandalar, xalq bastakorlari, rejissyor va artistlar ham kunduzi, ham kechalari tinimsiz mashg'ulotlar olib borar edilar. Masalan dramaturg rejissyor Abdullo Badriy (1893-1936) "Qo'sh hovuz" dagi "Sanoiy nafosat" studiyasi (bu hozirgi Hamid Olimjon nomidagi viloyat teatriga qarashli edi), Mirzo Po'lat guzaridagi "Oktyabr" havaskorlari klubiga Hoshim Narziqulov (1901-1963), "Maorif uyi" qoshidagi kechki milliy cholg'u kursida X.Abdurasulov (va yana san'at institutida ham) dars berardi. Qodirnay Yusupov, Sharif Bobokalonov, Qodir avliyo "Chorraha" guzaridagi "Sozanda" jamoasida, qo'shmaychi Ahmadjon Umurzoqov, naychi Komiljon (Yusupov), 5-son maktab qoshidagi musiqa to'garagida Tolibjon Sodiqovlar ishlardi. Ana shu to'garaklarda Sharifjon Akramov tengdoshlari Doni Zokirov, Ziyodullo Shahidiy, Nabijon Hasanov, A'zam Kamolov, Rabbim Hamdamov, bo'lg'usi opera ashulachilari Burhon To'rayev, Shamsi Jo'rayev, hoji Qurbon Ahmedov, Rafael Tolmasov, musiqali artistlar Qamara Burnasheva, Hanifa Mavlonova, Abug'ay Isomova va ko'plab bo'lajak sozandalar bilan tanishadi. Nihoyat, u ana shu do'stlari bilan professional bastakorlik, xonandalik, sozandalik, bozandalik san'atini ustozlardan o'rganadi, keyinchalik ular bilan hamnafas bo'lib viloyat musiqali drama, Buxoro yahudiylarning "Mehnat bayroq" viloyatlararo davlat musiqali teatrlarida ijod qiladi.

Sharifjon Akramov 7-sinfni bitirgach, F.Xo'jayev nomidagi 5-nchi pedagogika texnikumiga bo'lajak bastakor, aktyor o'rtoqlari Asror Jo'rayev, Rashid Fayziy, Baqo Tojiyev, Samad G'ani, G'ani Abdullo, Burhon To'rayev, Mirbobo Ziyoyev, Qayum G'afforov va boshqalar bilan o'qishga kiradi va bu yerda Yunus Rajabiy (nay), Rixsi Rajabiy (tanbur), Aliordobus Ibrohimov (plastika-ritmika), Rahim Pirmuhammedov (aktyor mahorati)lardan musiqa, san'atiga oid fanlardan ta'lim oladi va shu bilan birga viloyat o'zbek davlat musiqali drama teatri aralash orkestrida, konsert guruhida, taniqli mehtar, xonanda, sozanda, bastakor, "Shashmaqom"ning ulkan bilimdoni Shohnazar Sohibov (O'zbekiston va Tojikistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Tojikiston xalq

artisti) qo'lida chinakam ijod qila boshladi. Mana shu yillari o'zbek teatrida 50 dan ortiq o'zbek, tojik, eron, yahudiy ijodkorlari faoliyat ko'rsatar (shahardagi "Adolat"-Eron, "Tarbut"-Yahudiy truppalari viloyat teatriga 1929 yilning 20-oktyabridan birlashtirilgan edi.B.I.), milliy ansambl asosidagi qator musiqali spektakllardagi partiyalarni ijro etardi, xor (unison) guruhida qatnashadi, teatrning konsert brigadasida faoliyat ko'rsatar edi. Inchinun, Sharif Akramov ham ana shu ansamblda sozanda, sahnada xor artisti, konsertlarda xonandalik qilardi.

Sharifjon Akramov repertuaridagi "Halima" (G'.Zafariy), "Hujum" (V.Yan.Cho'lpon), "Bog'bon qiz"(S.Abdulla, T.Sodiqov), "Arshinmololan" (U.Hojibekov), "Ikki kommunist" (K.Yashin), "Qosimovchilar" (Ziyo Said) kabi qator spektakllarda goh nay, goh dutor, goh tor bilan musiqaviy chiqish nomerlarni chalish bilan u yoki, bu voqyeani melodramatik, hayotbaxshlik, yoxud, chuqur psixologik holatini ochib berardi. Bu borada unga ustoz san'atkor, truppa mudiri Hoshim Narziqulov hamisha amaliy yordam ko'rsatar, goho sof dramatik spektakllarga mos keladigan kuylarni tanlab ijro etishga da'vat qilardi. Jumladan, ilk bor akasi Ismoil Akramov va do'sti G'ani Abdulla qalamiga mansub "Muzaffariyat" (ilk varianti "Amricha") dramasiga musiqalar tanlash Sharifjon Akramov zimmasiga yuklatiladi. Yosh rejissyor Asror Jo'rayevning birinchi postanovkasi bo'lmish bu inqilobiy mavzudagi asarga tanlangan musiqalar Sharif Akromov "bastakor"ligining uchquni bo'ladi.

Ustoz Shohnazar Sohibov ilk bor T.Sodiqov, D.Zokirov, N.Hasanov, Sh. Akramov, M.Xalilov, R.Hamdamlarga partitura tuzish va aralash orkestrga moslashni manna shu yillar (Buhoro yahudiylari "Mehnati bayroq" viloyatlararo Davlat musiqadrama teatrida) sahnalashtirgan "Farhod va Shirin" spektaklidan boshlaydi. Keyinchalik Sharifjon Akramov va uning hamkasblari o'zbek sahnasida musiqali spektakl sifatida sahnalashtirilgan "G'unchalar" (Z.Fatxulin)da Doni Zokirov bilan hamkorlik qiladi. Samarqand folklorining katta bilimdoni va ijrochisi hoji Qurbon Hamidov ("Hoji tam-tam") tanlangan kupletlariga xalq kuylarini singdiradilar. Shuningdek, "Zulmi amir" (A.Avezov) musiqali dramasi yaratilishida Sh.Sohibov, A.Kamolovlar bilan birga buxorocha ohanglardan unumli foydalanadilar va qo'shiqlar matnini G'ani Abdulla, Samad G'anilar bilan birga yozadi kuylash uslubida Buxoro yahudiylarga xos bo'lgan lahjalarga urg'u beradi. Bu borada avvalo teatr direktori, yosh dramaturg Ismoil Akramovning xizmatlari cheksiz bo'lgan.

"Farhod va Shirin", (Xurshid, Yu.Rajabiy), "Halima", (G'.Zafariy), "Ichkarida", (K.Yashin, T.Sodiqov) pyesalarini Buxoro-yahudiy tiliga tarjima qilishda (tarjimonlar Sh.Qiyomov, S.G'ani, G'.Abdullo, M.Robiyev) qo'shiqlarni notalarga singdirish, jarangdor so'zlardan foydalanish ham O'ZGUning o'zbek-tojik filologiya fakultetida (kechki bo'limda) ta'lim olayotgan (1933-1937) Sharif Akramov zimmasiga tushadi.

- Men bu teatrdagi adabiy emakdosh sifatida ishlasamda, ashula va xorlarni artistlarga o'rgatardim,- degandi ustoz, biz bilan bo'lgan bir suhbatimiz (15-aprel, 1973 y)da, teatrning badiiy rahbari Dono Is'hoqboyev "Halima", "Farhod va Shirin", "Zulmi amir" spektakllarini sahnalashtirish jarayonida, ayniqsa, Farhod,

Ne'mat, Amir Olimxon rollarini (bu obrazlarni ham dastlab o'zi yaratgandi) talaffuzini qayta-qayta tuzatishni mendan iltimos qilardi...

Hanifa Mavlonova bilan Abug'ay Isomova (Shirin, Halima, Gulsara) lar esa o'z qahramonlariga, uning talaffuziga esa ikki xil yondashardi. Men esa har kungi spektakl oldidan soatlab ularning talaffuzi ustida (intonasiyasi) matnlarga tushadigan urg'ular bilan shug'ullanardim.

Bu borada dirijyorimiz A'zam Kamolov (1912 Samarqand 14.10.1971) yahudiy lahjasini juda yaxshi bilar, aralash orkestrga rahbarlik qilish bilan birga artistlarning talaffuziga jiddiy e'tibor berardi. Rostini aytsam, Farhod rolini ijro etish menda mana shu Buxoro yahudiy (1935-1936) teatrida paydo bo'lgandi. Ne'matni esa o'zimizning teatrimizda G'ulom Abdurahmonov va Abdurauf Boltayevlarga dublyor bo'lib o'ynardim. Lekin Dono Is'hoqboyev, Gavriel Mullaqandovlar yaratgan Ne'mat obrazlari bulardan farq qilardi. U ham bo'lsa yahudiy artistlarida Ne'mat ancha kuchli, isyonkor, kurashchan chiqqan edi...

Ha, ustoz Sharifjon Akramovning hikoya qilishicha qaynotasi Hoshim Narziqulov har ikki teatrdagi Farhodni o'ynashga ruxsat bermagan. "Musiqali dramada nafaqat baland, yaxshi ovoz eng muhimi-ijrochilik mahorati ham kerak!"-derkan H.Narziqulov. Demak, Sharifjon Akramovda o'sha yillari aktyorlik mahorati pishib yetmagan bo'lsa ajab emas. Undan tashqari, mana shu yillar teatrlarning yetakchi musiqali artistlari G'.Abdurahmonov, Shamsi Jo'rayev, Burhon To'rayevlar 10-15 yillik tajribaga ega bo'lgan edilar.

30-yillarning so'ngida teatrdagi Moskva konservatoriyasi qoshidagi o'zbek opera studiyasini N.Hoshimov, B.To'rayev, N.Hoshimova, Sh.Jo'rayev, F.Xo'jayeva, A. Lohutiy nomidagi Toshkent teatr-texnikumining xoreografiya, aktyorlik va musiqa-vokal bo'limini Q.Burnasheva, Bois Ergashev, Latifa Bagishova, Lena Tribuxina, Hasan Mamedov, Ollohqul Mustafoev, Abubakr va Abduqodir Mirzayevlar, Roza Ayupova, Shamsiy Ma'rufiy, O'g'iloy Usmonova, Roziya Karimova, Samar Sa'diyy, Mirbobo Ziyoyevlar bitirib keladilar. Shuningdek, Moskva davlat san'at institutida malakasini oshirib qaytgan rejissyor Asror Jo'rayev teatrlarning yangidan izlanishiga keng imkon berardi. Mana shu yillar H.Narziqulov (san'at ishlari bo'yicha viloyat boshqarmasining boshlig'i), Ismoil Akram (Birlashgan viloyat A.Lohutiy nomidagi musiqali drama teatri direktori) larning katta tashkilotchiligida teatrdagi kadrlar muammosi o'z yechimini topa boshlaydi. Mahalliy musiqa bilim yurtidan, madaniyat uylaridan Uzoq Mahmudov, Malik Ermatov, O'lmas Sultonov kabi ovozli yosh iste'dodlar teatrga jalb qilinadi, teatrlarning xor, balet, aralash orkestri jamoasi, badiiy rahbarlar guruhi qaytadan tiklanadi. I.P.Shkvalov bosh rejissyor, V.A.Shperling bosh dirijyor, N.Hoshimov bosh xormeyster, N.Novikovbosh baletmeyster (1939 yildan esa Aziza Azimova)lar o'rtasidagi ijodiy hamkorlik o'z natijasini bera boshlaydi, repertuar ham yangi asarlar hisobiga boyitiladi. Bu Davlat buyurtmasi bilan ilk bor sahnalashtirilgan "Tohir va Zuhro" musiqali dramasida yaqqol ko'zga tashlanadi.

1939 yilning iyun, iyul oylarida Samarqandda Muxtor Ashrafiy rahbarligida Sverdlov nomidagi Respublika rus opera va balet teatrlarining gastrollari bo'lib o'tadi. Sh.Akramov va H.Narziqulov, M.Ashrafiy bilan hamkorlikda "Tohir va

Zuhro” masalasini respublika markazqoʻmi oldiga qoʻyadilar. Markazqoʻm bu tashabbusni qoʻllab-quvvatlaydi. M.Ashrafiy, F.Shamsiddinov rahbarligida Tohir va Zuhro rollari uchun teatrdagi tanlov oʻtkaziladi (1939 yil, 5-12-sentyabr).

Tanlov jarayonida 4-ta Zuhro (F.Xoʻjayeva, Q.Burnasheva, E.Qoʻziboyeva, N.Xoshimova) 4-ta Tohir (Burhon Toʻrayev, Uzoq Mahmudov, Sholom Boboxonov va Sharifjon Akramov)lar qatnashadilar va tanlov dasturiga kiritilgan 3-ariya, 3-ta duetlar bilan musobaqa qiladilar. Tanlov hayʼati aʼzosi, teatrdagi bosh dirijyori V.A.Shperling bu haqda shunday degandi:

“Oʻrtoq Abulxayr Sultonov. Siz “Tohir va Zuhro” musiqali dramasini sahnalashtirish boʻyicha Davlat Komissiyasining raisisiz... Samarqandliklar orasida Tohir partiyasini Sharif Akramovdan boshqa solistlar xalqchil qilib aytolmasligining sababi bitta. Oʻqish davrida yoshlarimiz (B.Toʻrayev, Sh.Joʻrayev, N.Hoshimov)dan Yevropacha kuylashni talab qilishgan. Vaholanki, “Tohir va Zuhro” xalq qoʻshiqlari asosida yozilgan... Burhon Toʻrayev, Shamsi Joʻrayevlardagi katta ovoz, keng diapazon Yago, Sezar, Otello (D.J.Verdi, “Otello”, “Yuliy Sezar”) partiyalarini aytishga imkon beradi. Biroq Tohirdagi millizmni endi musiqali drama janrida kuylashlari murakkabdir. Toʻgʻri, Nasim Hoshimovning ovozi ham bebaho. Ammo Tohir emas u...

U Eskamilio (J.Bize, “Karmen”), Trubadur (J.Verdi, “Trubadur”)-ni kuylaydi, Xon Boboxonni ham, Parpi Hofizni ham N.Hoshimov bekamukoʻst aytadi...” (26-noyabr 1939 y. Protokol № 5). Ha, Sharifjon Akramovdagi cheksiz ovoz bilan birga tugʻilgan milliy kuylash mahorati ilk bor Tohir partiyasida namoyon boʻladi.

Sharifjon tabiatan ham, hayotda ham, sahnada ham milliy odob-axloq normalarini hamma narsadan ustun qoʻygani uchun ham saroyda tarbiya topgan Tohirning yurish-turishiga, muomala madaniyatiga alohida eʼtibor berardi. Kuylashiga kelsak tengsiz baquvvat ovozida milliylik joʻsh urib turardi. Toʻgʻri, Noilaxonim Yevropacha madaniyatda tarbiyalangan edi. Ammo Hoshim aka oilasida u endi haqiqiy oʻzbek qizi, sahnada esa maftunkor malika edilar...¹ Spektaklning asosiy qahramonlarini xatti-harakatlari mizan-suyenalarda cheklanmagan, ancha erkin hal qilingan edi. Bu Sh.Akramov va N.Hoshimovalar oʻz qahramonlarining ichki tugʻyonlarini toʻla ifoda qilishiga keng imkon berardi. Xon Boboxon bilan boʻladigan yuzma-yuz sahnalardagi har ikkala qahramonning isyonlari yalangʻoch, yoxud jizzaki boʻlmay, aksincha, bosinqiroq, salobatli jaranglardir... Afsuski, hozirgi koʻpchilik musiqali artistlarimizda mana shu “Yuzma-yuz” sahnalar (bu yerda ustoz shu asarni opera variantini koʻzda tutardi)da nafosat, milliy axloq ikkinchi darajali boʻlib qolar edi...

Xulosa

Musiqiy merosimizni o'rganish bilan bir qatorda, xalq musiqasiga asoslangan kompozitorlik va bastakorlik ijodiyoti namunalarini umumiy va maxsus musiqa ta'lim jarayoniga kiritishi zamonaviy talab va ehtiyojlardan biri bo'lib qoldi.

Samarqandning olamshumul mohiyatlarini e'zozlab Respublikamiz Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov aytgan edi «Samarqand-xalqimiz, millatimiz dovrug'ini butun dunyoga taratgan, ming-ming yillik tarixga ega ilohiy maskanimizdir».

Qadimiy Maroqand va Afrosiyob qoldiqlaridagi devorga ishlangan tasviriy san'at namunalarida do'mbira, qo'biz, sibizg'a, chanqovuz, chang, rubob, tanbur, ud singari musiqa asboblarning bo'lishi Samarqand musiqa san'atining juda qadimiyligidan daololat beradi.

Qadimdayoq Samarqand o'z san'ati: naqshinkor bezaklar, yog'ochga va ganchga naqsh solish, metalga o'yma naqsh tushirish, zargarlik buyumlari bilan mashhurdir. Moddiy madaniyat bilan birgalikda Samarqandda qadim zamonlardan fan va ma'naviy madaniyat ham rivojlangan. Alisher Navoiy bobomiz ham bir necha yillar davomida (1465-1469 y) Samarqandda yashagan, musiqa sirlarini o'rgangan, musiqa asboblari chalgan, olimu-mudarrislar, shoirlar va musiqachilarni e'zozlagan.

Musiqa nafaqat majlislarda yangrab turadi, balki sharq xalqlari madaniy hayotida o'quv yurtlari sifatida muhim rol o'ynab madrasalar turmushiga kirib boradi.

Ko'pgina Samarqand olimlari musiqa haqida risolalar yozganligi ibratlidir. Ulug'bek, Bibixonim, Ahmad Hojibek, Fazlulloh Abu Lays madrasalari bilan chambarchas bog'langan ko'plab taniqli musiqachilarning nomlari saqlangan. Adabiy manbalarda shoir, xattot va musiqachi Amir Ali Akbar Samarqandiy (XVI asr), tabib-jarroh shoir-musiqachi Boqiy Jarroh Samarqandiy (XV asr) nomlari, shoir, adabiyotshunos, tarixchi va musiqachi Mutribiy Samarqandiy (XVI-XVII asrlar), shoir, adabiyotshunos, musiqa nazariyotchisi Kohi Mavlono-Qosim nomlari tarixiy manbalarda joy olganlar. Samarqandda yuksak rivojlangan og'zaki an'analarning professional san'ati mavjud. Samarqandda Shashmaqomning ajoyib ustalari, mohir xonanda va sozandalari yetishib chiqqan o'zbek kuy va qo'shiqlarning mualliflari Hoji Abdulaziz Abdurasulov, uning shogirdlari Oqilxon, Levicha, Muxiddin Qoriyoqubov, Kamol Hofiz, Ma'rifatxon, Maqsadcha, Yunus Rajabiy, Qori Yunus Yusupov, Sharifjon Akramovlar edilar. O'sha vaqtlarda Hoji Tam-tam nomi bilan mashhur bo'lgan Hojiqurbon Homidov ham bir qancha o'zbek sozanda va xonandalariga murabbiylik qilgan.

Samarqand musiqa san'ati maktabi an'alarining bugungi kundagi davomchilari, yoshlarga san'at sirlarini o'rgatish bilan bir qatorda o'zbek san'atini jahonga tanitayotgan musiqa san'ati fidoyilari Toshkent davlat konservatoriyasi professori Yelena Galaskaya, Matnazar Xudoynazarov, Feruza Abduraximova, Avaz Rajabovlar bilan haqli ravishda faxrlasak arziydi.

Qadimiy ma'rifat va madaniyat markazi Samarqand mustaqillik yillarida yanada madaniyatning yirik uchog'iga aylanib O'zbekiston musiqa san'atiga

emas, balki butun markaziy Osiyo, Sharq musiqa madaniyatning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda.

O'zbekistonning milliy istiqloliga erishishi jamiyat hayotida mavjud bo'lgan, mustabid sho'rolar davrida shakllangan va tobora ziddiyatli tus olgan qator muammolarni ham etish uchun zamin yaratdi. Mustaqillik tufayli xalqimiz avvalo o'zligini anglash jarayoniga kirdi. Milliy madaniy va milliy tarixiy qadriyatlarni tinglash imkoniyatiga ega bo'ldi. Milliy ong, milliy o'zlik, milliy tafakur va milliy mafkura tiklanib shakllana boshladi. Ushbu jarayonlar ichida ma'naviyat alohida o'rin egallaydi. Yurtboshimiz I.A.Karimov «Modomiki, biz huquqiy demokratik davlat, erkin fuqorolik jamiyatini qurayotgan ekanmiz, ma'naviyat sohasida XXI-asrga mo'ljallangan harakat dasturimiz ham ana shundan kelib chiqmog'i darkor, ya'ni erkin fuqaro ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs ma'naviyatini kamol toptirish bizning bosh milliy g'oyamiz bo'lishi zarur» deb ta'kidlaydi.

Istiqlol yillarida ma'naviy-mafkuraviy sohada salmoqli yutuqlar qo'lgan kiritildi. Respublikamiz hukumati tomonidan qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yoshlarimizni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda chuqur ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kun o'qituvchisiga milliy g'oya va mafkuramizni chuqur anglab yetgan, chuqur bilimli, erkin fikrli, jahon andozalariga to'liq javob beradigan komil insonni tarbiyalab yetishtirishdek ma'suliyat yuklangan. Inson ruhiyatiga cheksiz hisiy ta'sir ko'rsatishga qodir estetik tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri nafosat tarbiyasidir. Nafosat tarbiyasi esa go'dakligidan boshlab ona allasi bilan boshlanadi. Go'dak ongini alla og'ushida taniydi. Millat va xalq qadriyatlari asosida yaratilgan kuy va qo'shiqlarni eshitib ulg'ayadi, o'zligini anglaydi.

Mustaqillik yillarida barcha sohalaridagi singari musiqiy san'atimizning ham gullab yashnashiga keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Zero yurtboshimiz I.Karimov «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» asrida ta'kidlaganidek - «Agar biz O'zbekistonimizni jahonga tarannum etmoqchi, uning tarixiy va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida abadiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni- buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak».

Shu maqsadda prezidentimiz I.Karimov tomonidan qator farmoyish va qarorlar chiqarilib hayotga tadbqiq etildi. Jumladan 2006 yil 25 avgustda «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida» gi qarori qabul qilindi. 2008 yil 8 iyulda «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash hamda ular faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasutri to'g'risida» gi qarorlari yoshlarimizni barkmol inson sifatida shakllantirishda dasturul amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Samarqand musiqa ma'rifati ham xudi shaharning o'zidek, o'tmish va buguni o'zida mujassamlashtirgan, ularni mantiqiy ravishda uzviy bog'lagan, xalq ijodiyotini ham, professional san'atini ham qardosh xalqlar va Yevropa musiqa madaniyatining durdonalarini ham bir nuqtaga to'plab, keng xalq ommasiga yetkazayotgan ajoyib san'atdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz buyuk kelajak qurib bo'lmaydi–T:G'.G'. 2004-yil.
2. I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» T; Ma'naviyat 2008 y.
3. «Bastakor Sharif Akramovning xayoti va ijodiyotini o'rganish uslublari», T; dos.N.Valixajayev Samarqand 2009 y.
4. Mahmud Ahmedov. Hoji Abdulaziz Abdurasulov. Tashkent. “O'qituvchi” nashriyoti. 1974 y.
5. Olimjon G'afurova va boshqalar. Abdulaziz Hofiz. Samarqand 1996 y.
6. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. T.:Ma'rifat. 1997.
7. Samarqand viloyat arxivlar fondi.
8. Sharifjon Akramovning nota yozuvidagi qo'shiqlari.
9. Z.Said., N.Safarov., Sh.Akramovning «Tarix tilga kirdi» nomli musiqali dramaning nota klaviri.
- 10.I.Akramov., Sh.Akramov «Taqdir» nomli musiqali dramaning nota klaviri.
11. Sh.Tuyg'un., Sh.Akramov «Muhabbat» nomli musiqali dramaning nota klaviri.
12. S.Nazarov., Sh.Akramov «Qiz qal'asi» nomli musiqali dramaning nota klaviri.
13. H.Zayniddinov ”Asrlar sadosi” T: 1979
- 14.A.Sharipov ”Hofiz yurgan yo'llarda” Samarqand: 1996
15. H.H.Niyoziy., Sh.Akramov «Xolisxon» nomli musiqali dramaning nota klaviri.
- 16.Samarqandlik san'atkorlar bilan Sh.Akramovning ijodiyoti to'g'risidagi suhbatlar.
- 17.www.ziyonet.uz I.A.Karimov asarlari.
- 18.www.pedagog.uz “Ta'lim to'g'risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. T.:Ma'rifat. 1997

BuxDU Pedagogika fa'kul'teti musiqiy ta'limi kafedrası bitiruvchi kurs talabasi Safarov Faruxning “Samarqandlik bastakorlar ijodi: musiqiy tahlil” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

O'zbek musiqa san'ati asrlar osha o'zbek xalqi tomonidan ulug' ma'naviy qadriyat sifatida ardoqlab kelingan. U yillar osha og'zaki uslubda shakllanib, rivojlanib kelgan; xalq orasidan ajoyib bastakorlar, ijrochilar yetishib chiqqan. O'zbek musiqa ijodkorligi asosan bastakorlik uslubida shakllanib kelgan. Hozirgi davrga kelib esa o'zbek musiqa san'atida Yevropa musiqa nazariyasiga asoslangan kompozitorlik uslubi ham keng rivojlandi va bu uslubda o'zbek kompozitor - bastakorlari ham ko'plab musiqa durdonalarini yaratmoqdalar. Kompozitorlarning asosiy ijod manbai bu xalq musiqasidir. O'zbek bastakor va kompozitorlari ana shu cheksiz manbadan foydalanib musiqa san'atining turli janrlarida ijod qilmoqdalar.

Safarov Faruxning “Samarqandlik bastakorlar ijodi: musiqiy tahlil” deb nomlangan mazkur malakaviy bitiruv ishida Samarqandlik bastakorlar ijodini uslubiy negizini yoritib berishga harakat qilgan.

Ishning 1-bobi mazmunida Samarqand musiqa madaniyati va taraqqiyoti, san'atshunoslikka oid manbalarga tayangan holda tahlil qilingan. Shu o'rinda O'zbekiston Bastakorlari ijodiyoti haqida tushuntirib berilgan.

Ishning 2-bobida esa Samarqand musiqa ijodkorligi – bastakorlik uslubining shakllanishining mazmuni yoritib berilgan.

Chiqarilgan xulosa va muallifning o'z izlanishlari samarasi o'laroq bergan tavsiyalari ham ilmiy qiymatga egaligi bilan diqqatga molikdir.

Ushbu malakaviy bitiruv ishini umumta'lim maktablari musiqa o'qituvchilari, talabalar uchun foydali manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ishni muhim dolzarb muammoni tadqiqiga bag'ishlangan izlanish sifatida baholash va himoyaga tavsiya etish mumkin.

Ilmiy rahbar:

M.I. Rajabova

**BuxDU Pedagogika fa'kul'teti musiqiy ta'limi kafedrası bitiruvchi kurs
talabasi Safarov Faruxning “Samarqandlik bastakorlar ijodi: musiqiy tahlil”
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Samarqandning olamshumul mohiyatlarini e'zozlab Respublikamiz Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov aytgan edi «Samarqand-xalqimiz, millatimiz dovrug'ini butun dunyoga taratgan, ming-ming yillik tarixga ega ilohiy maskanimizdir».

Qadimiy Maroqand va Afrosiyob qoldiqlaridagi devorga ishlangan tasviriy san'at namunalarida do'mbira, qo'biz, sibizg'a, chanqovuz, chang, rubob, tanbur, ud singari musiqa asboblarning bo'lishi Samarqand musiqa san'atining juda qadimiyligidan daololat beradi.

Qadimdayoq Samarqand o'z san'ati: naqshinkor bezaklar, yog'ochga va ganchga naqsh solish, metalga o'yma naqsh tushirish, zargarlik buyumlari bilan mashhurdir. Moddiy madaniyat bilan birgalikda Samarqandda qadim zamonlardan fan va ma'naviy madaniyat ham rivojlangan. Alisher Navoiy bobomiz ham bir necha yillar davomida (1465-1469 y) Samarqandda yashagan, musiqa sirlarini o'rgangan, musiqa asboblari chalgan, olimu-mudarrislar, shoirlar va musiqachilarni e'zozlagan.

Musiqa nafaqat majlislarda yangrab turadi, balki sharq xalqlari madaniy hayotida o'quv yurtlari sifatida muhim rol o'ynab madrasalar turmushiga kirib boradi.

Safarov Faruxning “Samarqandlik bastakorlar ijodi: musiqiy tahlil” deb nomlangan mazkur malakaviy bitiruv ishida Samarqandlik bastakorlar ijodini uslubiy negizini yoritib berishga harakat qilgan.

Ishning 1-bobi mazmunida Samarqand musiqa madaniyati va taraqqiyoti, san'atshunoslikka oid manbalarga tayangan holda tahlil qilingan. Shu o'rinda O'zbekiston Bastakorlari ijodiyoti haqida tushuntirib berilgan.

Ishning 2-bobida esa Samarqand musiqa ijodkorligi – bastakorlik uslubining shakllanishining mazmuni yoritib berilgan.

Muallif o'z ishini yoritishda avvalo nazariy tomonlarini yoritishga jiddiy yondoshadi. Shu o'rinda respublikamizda taniqli bastakorlar va san'atshunos olimlarning musiqiy-badiiy ijodiyotiga oid ilmiy-amaliy ishlarini atroflicha o'rganadi. Olib borilgan amaliy tajribalar mohiyati va mazmuni ushbu ishni mustaqil bajarilgan va tugallangan ish sifatida baholash imkonini beradi.

Umuman olganda mazkur ish va uni bajarish bo'yicha “Nizom talablariga” javob beradi va uni himoyaga tavsiya etaman.

**Buxoro viloyat xalq ta'lim xodimlarini
qayta tayyorlash va ularning malaka
oshirish instituti o'qituvchisi: p.f.n**

B.I. Mustafoev

**BuxDU Pedagogika fa'kul'teti musiqiy ta'limi kafedrası bitiruvchi kurs
talabasi Safarov Faruxning "Samarqandlik bastakorlar ijodi: musiqiy tahlil"
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Respublikamiz ta'lim tizimida amalgam oshirilayotgan islohatlarni belgilovchi islohatlarni belgilovchi davlatimizning asosiy hujjatlarida ta'lim mazmuni, shu jumladan musiqa madaniyati darslari mazmunli, milliy zamin asosida o'rgatish va o'rganishga alohoda e'tibor berilgan. Shu boisdan ham mazkur malakaviy bitiruv ishi mavzusi dalzarbdir.

Istiqlol yillarida ma'naviy-mafkuraviy sohada salmoqli yutuqlar qo'lgan kiritildi. Respublikamiz hukumati tomonidan qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yoshlarimizni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda chuqur ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kun o'qituvchisiga milliy g'oya va mafkuramizni chuqur anglab yetgan, chuqur bilimli, erkin fikrli, jahon andozalariga to'liq javob beradigan komil insonni tarbiyalab yetishtirishdek ma'suliyat yuklangan.

Qadimdayoq Samarqand o'z san'ati: naqshinkor bezaklar, yog'ochga va ganchga naqsh solish, metalga o'yma naqsh tushirish, zargarlik buyumlari bilan mashhurdir. Moddiy madaniyat bilan birgalikda Samarqandda qadim zamonlardan fan va ma'naviy madaniyat ham rivojlangan. Alisher Navoiy bobomiz ham bir necha yillar davomida (1465-1469 y) Samarqandda yashagan, musiqa sirlarini o'rgangan, musiqa asboblarida chalgan, olimu-mudarrislar, shoirlar va musiqachilarni e'zozlagan. Musiqa nafaqat majlislarda yangrab turadi, balki sharq xalqlari madaniy hayotida o'quv yurtlari sifatida muhim rol o'ynab madrasalar turmushiga kirib boradi.

Safarov Faruxning "Samarqandlik bastakorlar ijodi: musiqiy tahlil" deb nomlagan mazkur malakaviy bitiruv ishida Samarqandlik bastakorlar ijodini uslubiy negizini yoritib berishga harakat qilgan.

Ishning 1-bobi mazmunida Samarqand musiqa madaniyati va taraqqiyoti, san'atshunoslikka oid manbalarga tayangan holda tahlil qilingan. Shu o'rinda O'zbekiston Bastakorlari ijodiyoti haqida tushuntirib berilgan.

Ishning 2-bobida esa Samarqand musiqa ijodkorligi – bastakorlik uslubining shakllanishining mazmuni yoritib berilgan. Muallif o'z ishini yoritishda avvalo nazariy tomonlarini yoritishga jiddiy yondoshadi. Shu o'rinda respublikamizda taniqli bastakorlar va san'atshunos olimlarning musiqiy-badiiy ijodiyotiga oid ilmiy-amaliy ishlarini atroflicha o'rganadi. Olib borilgan amaliy tajribalar mohiyati va mazmuni ushbu ishni mustaqil bajarilgan va tugallangan ish sifatida baholash imkonini beradi. Men, taqrizchi sifatida Safarov Farux tomonidan yozib to'liq tugallangan va mustaqil bajarilgan bitiruv malakaviy ishini himoya qilishga tavsiya etaman

**Musiqiy ta'lim
kafedrası dotsenti:**

B.X.Madrimov